

O'zbekiston Respublikasi madaniyat va sport ishlari vazirligi

**TOSHKENT DAVLAT MILLIY RAQS VA XOREOGRAFIYA
OLIIY MAKTABI**

“San’at nazariyasi va tarixi” kafedrası

San’atshunoslik ta’lim yo’nalishi bitiruvchisi

Xolmurzayeva Gulnoza Muxtor qizining

O'zbek estrada qo'shiqchiligida raqsning o'rni

Mavzuidagi

MALAKAVIY BITIRUV ISHI

“San’at nazariyasi va
tarixi” kafedra

mudiri s.f.n. dotsent

_____Yuldashev T.I.

Ilmiy rahbar: “San’at
nazariyasi va tarixi” kafedrası
professori san.fan.doktori
_____Ibragimov O.A.

Toshkent-2013

Mundarija:

K i r i s h.....	3
I - bob. O'zbek estrada qo'shiqchiligi san'atshunoslar nigohida.....	8
II - bob. Yangi davr o'zbek estrada qo'shiqchiligida raqs san'atining ahamiyati.....	23
1. Ommaviy xalq bayramlarida raqsning o'rni.....	30
2. Klip san'atini yaratishda raqsning o'rni	39
X u l o s a.....	48
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	53
Ilova.....	56

Kirish

“Ma’naviyat qotib qolgan aqidalar yig’indisi emas, aksincha doimiy harakatdagi uzluksiz jarayon bo’lib, taraqqiyot davom etar ekan, uning shiddatli yurishi tufayli ma’naviy hayot oldiga qo’yiladigan talablar ham muttasil paydo bo’laveradi”¹.

Islom Karimov

Dunyo yaralibdiki, bu go’zal kurrai zaminda, insoniyat yashab kelmoqda. To insoniyat yashashda davom etar ekan, doimo izlanishda, intilishda va shu say-harakatlari natijasida rivojlanish, taraqqiy etish yuzaga keladi. U doimo o’z salohiyati, o’z qobiliyati va o’z kuchini har jabhada sinab ko’rishga intilib keladi. Hoh u ijtimoiy sohada bo’lsin, hoh iqtisodiy-siyosiy yoki bo’lmasa san’at sohasida.

Agar biz insoniyat bosib o’tgan yo’llarga keng qamrovda qaraydigan bo’lsak, XX asr qanchalik chigal bo’lmasin, har holda u taraqqiyot asri bo’ldi. Aynan mana shu asrda insoniyat bolasi fazoga uchdi va oyga qadam qo’ydi, aynan mana shu asrda inson honadoniga televideniye kutilmagan mehmondek kirib bordi-da, tez fursat ichida mezbonga aylandi, aynan mana shu asr inson sur’atini oynalar ichida jonlantirib, kino deb atalmish inson hatti-harakatini lentalar muhrlab o’ziga ko’rsatuvchi mo’jizani tortiq qildi, aynan mana shu asr ishimizni tez suratlarda bajaruvchi fan-texnikaning bebaho ne’matlaridan bo’lmish kompyuterni kashf etdi, uning funksiyalarini yanada rivojlantirib, yer sharini internet deb atalmish to’r bilan o’rab qo’ydi, aynan mana shu asr yangi ko’rinishdagi telefonlarni insonlarga in’om qildi. To’g’ri o’tgan asr inson qalbida og’riqli izlarni qoldirgan, lekin, masalaga jiddiyoq yondashadigan bo’lsak, o’tgan asr insonlarga misli ko’rilmagan imkoniyatlarni ham yaratib bergan edi. Yangi-yangi marralarni zabt etishdagi mashaqqatimizni osonlashtirdi. Hozirgi asrimiz o’tgan asrdan

¹ Karimov I.A. “Yuksak ma’naviyat- yengilmas kuch”. T., “Ma’naviyat” nashriyoti, 2008 yil, 171-bet.

mamnun bo'lmog'i, u tuhfa qilgan narsalarni qadriga yetmog'i kerak, desak, haqiqatga xilof bo'lmaydi.

San'at... go'zallik timsoli va u turfa xildir. Insoniyat esa doimo go'zallikka, yaxshilikka oshuvta bo'lib yashab kelgan. San'at bu etika va estetika hamdir. Unga turlicha ta'rif berish mumkin. San'at va madaniyat doimo insonlarning beminnat hamrohi bo'lib kelgan. U jamiyat hayotida ham o'zining alohida o'rniga ega. San'at insonlar hayotini sermazmun qilishga, ularni g'am-tashvishlaridan oz bo'lsada chalg'itishga, o'zlarini bahtiyor his qilishga ko'maklashadi. U insonlarga bir olam shodlik, go'zal tuyg'ular hissini tuyishni, tabiat, borliqdan zavq olib yashashni va madaniy hordiq baxsh etuvchi sehrli ozuqadir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov ta'kidlaganidek, "Mustaqillik davrining yangi kishisi yuksak salohiyat egasidir. U yuzaki, oldi-qochdidan iborat bo'lgan badiiy adabiyotni endi o'qimaydi, sayoz, ur-surlardangina iborat bo'lgan kinofilm va spektakllarni tomosha qilmaydi, hissiz tayyorlangan bo'sh teleko'rsatuv va radioeshittirishlar taqdim etilganda televizorni o'chirib qo'yadi. Shunday ekan, madaniyat va san'atni yangi davr, yangicha dunyoqarash nuqtai nazaridan taraqqiy toptirish, jamiyat istiqbolining ustivor yo'nalishlaridan biridir"².

Darhaqiqat, bugungi kunda san'at sohasiga bo'lgan e'tibor kechagi kunga nisbatan juda yuqori desak, mubolag'a bo'lmaydi. Barcha san'at turlari o'ziga xos, bir-biriga o'xshamagan, bir-birini to'ldirib kelgan rivojlanish bosqichiga ega. Ular yillar davomida rivojlanib san'at turi sifatida o'z ifodasini aks ettirib kelgan. Rivojlanish bosqichlari yuzlab ilmiy adabiyot va maqolalarda, badiiy adabiyotlarda o'z ifodasini topgan. Shunday ekan, o'zbek estrada qo'shiqchiligidagi raqslarning ham o'z tarixi, rivojlanish bosqichlari mavjud.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, biz XXI asrda yashayapmiz, qolaversa, mana shu vaqt oralig'ida fan-texnika rivojlanib, o'zining munosib cho'qqilarini

² Karimov I.A. Ma'naviy yuksalish yo'lida.-T.: "O'zbekiston nashriyoti", 1998, 12-b.

zabt etib bormoqda. Fan-texnika qanchalar rivojlanmasin, uning mo'jizasini faqatgina bir toifadagi insonlar his qilmasdan butun insoniyat his qilishi zarur. Shuning uchun bugungi kunda o'zbek estrada san'ati, estrada qo'shiqchiligidagi raqqos va raqqosalarimizning ijro etayotgan jamiki raqslarini o'rganish, uning xususiyatlarini oddiy xalqqa ko'rsatish dolzarb mavzulardan biriga aylanib ulgurgan. Mavzu bir tomonlama olib qaralganda e'tiborga molik emasdek tuyuladi. Lekin musiqa va raqs madaniyati, "shou-biznes" sohasida turli informatsiyalar yig'indisi tomonidan olib qaralganda uni tahlil qilish foydali. Chunki bugungi kunda yosh bastakorlar, rejissorlar, ashulachilar, raqqoslar, shou-biznes odamlari, madaniy sohaning rahbarlari va ommaviy axborot vositalari vakillari va boshqalar o'rtasida fikr almashish tushunchasi deyarli yo'q.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. O'zbek estradasi qo'shiqchiligidagi raqsning ahamiyati haqida ayrim mulohazali maqolalar respublika matbuotlarida bir necha marta yoritilgan, lekin uning shakl-shamoyili haqida batafsil yoritib beruvchi deyarli birorta ham risola yo'q.

Raqs san'atini yorituvchi yozma manbalar asosan L. Avdeyeva va R. Karimova tomonidan yozilgan. Shuningdek, estrada san'ati bilan bog'liq o'zbek tilidagi manbalar yetarli emas. So'nggi yillarda san'atshunos M. Umarov tomonidan yozilgan "Estrada va ommaviy tomoshalar tarixi"³ kitobi ushbu san'atning qadimgi davrlardan to hozirgi kungacha rivojlanish tarixini o'zida mujassam etib, asosan ma'lumotlarga ko'p e'tibor qaratilgan. Aynan bizning mavzuga aloqador N. Sheremetyevskayaning "Estradada raqs"⁴ kitobi rus tilida bo'lsada, keng tarqalgan va ommalashgan estrada raqsi janrining spetsifik xususiyatlari va taniqli raqqosalar, xususan, o'zbek estrada san'atining asoschilaridan biri Tamaraxonim ijodi bilan tanishtiradi.

Ishning maqsad va vazifasi. Eng avvalo, mavzuning qay darajada yoritilganligi, shu orqali o'zbek estradasi, o'zbek estrada qo'shiqchiligidagi raqsning

³ Umarov M. Estrada va ommaviy tomoshalar tarixi. T., 2009, 300 b.

⁴ Шереметьевская Н. В. Танец на эстраде. М., 1986.

ahamiyati qandayligini anglash, ularning kelib chiqishi, nima uchun, nima sababdan paydo bo'lganligi, raqslarning mohiyatini aniqlash va bugungi kundagi ko'rinishi haqida fikr yuritish, o'zbek estrada qo'shiqchilik san'atidagi raqslar orqali milliy o'zlikni anglash va umumbashariy qadriyatlarni tarannum etishga bo'lgan intilishni yoritish.

Shu maqsadda quyidagi vazifalar belgilanadi:

- estrada nima uchun, qanday ehtiyojlarga sabab paydo bo'lganligini aniqlash;
- o'zbek estrada qo'shiqchiligi va raqs haqida to'plangan materiallar va mutaxassislar fikrlariga tayangan holda o'zbek estrada qo'shiqchiligi va undagi raqsning ahamiyati qandayligi;
- o'zbek ommaviy xalq bayramlarida raqsning o'rni;
- o'zbek san'atida suratga olinayotgan kliplarda raqsning o'rni.

Ishning ilmiy va amaliy ahamiyati shundaki, tanlagan mavzuim to'g'risida mutaxassislar tomonidan yozilgan ilmiy risolalar, maqolalar va bildirilgan fikrlarga tayangan holda o'zbek estradasi, o'zbek estrada qo'shiqchilik san'atida raqsning ahamiyati qandayligi, bugungi kundagi shou-biznes, o'zbek kliplarida raqsning o'rni, raqslardagi milliylik to'g'risida ko'plab fikrlar bildirilgan. Bildirilgan fikrlar kelgusidagi yetishib chiqayotgan yosh mutaxassislarga dasturamal bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot ishining obyekti o'zbek estrada qo'shiqchiligidagi raqs bo'lib, mazkur ishda raqsning paydo bo'lishi va estrada qo'shiqchiligidagi o'rni, ommaviy bayramlarda qo'llanilishi, teleekranlarda namoyish etilayotgan turli xil kliplardagi raqslarning mazmun-mohiyati, shakl-shamoyili yoritilgan va tahlil qilingan.

Bitiruv malakaviy ishning tuzilishi: Kirish, ikki bob, xulosa, ilova va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

Birinchi bob “O'zbek estrada qo'shiqchiligi san'atshunoslar nigohida” deb nomlanadi.

Mazkur bobda estrada so'zining ma'nosi, o'zbek estrada san'ati, uning kelib chiqishi va rivojlanish bosqichlari, o'zbek estrada qo'shiqchilik san'ati, shou-biznes olami, bu boradagi san'atshunos, xonanda, madaniyat hodimlari va mutaxassislarning turli xil fikr va mulohazalari xususida so'z boradi.

Ikkinchi bob “Yangi davr o'zbek estrada qo'shiqchiligida raqs san'atining ahamiyati” deb nomlanib, mazkur bob ikki bo'limdan iborat.

1-1. “Ommaviy xalq bayramlarida raqsning o'rni”. Mazkur bo'limda xalqimizning sevimli va ardog'ida bo'lgan ommaviy xalq bayramlari, bu kabi go'zal va tantanali bayramlarda o'zbekning jozibali va betakror bo'lgan raqs chiqishlari, raqqos va raqqosalarning mohirona ijrolari xususida to'xtalib o'tiladi.

1-2. “Klip san'atini yaratishda raqsning o'rni”. Bu bo'limda klip san'ati, bugungi kun kliplari va ularda raqs, kliplarda raqqos va raqqosalarning ijrolari, klipda raqs sahnalarining ahamiyati haqida fikr yuritiladi va tahlil qilinadi.

Xulosa qismida o'zbek estrada qo'shiqchilik san'atida raqsning bugungi kundagi ahamiyati, tomoshabinga berayotgan ma'naviy ozuqasi, G'arb va Sharq madaniyatiga bog'lab gapirilganda raqs harakatlari bir xil, lekin ijro usuli har xil bo'lgan raqslarning ijobiy va salbiy oqibatlari, yoshlar ma'naviyatiga qanday ta'sir o'tkazayotganligi, raqslarimizning kundan kunga yevropalashib borayotgani va milliylikning yo'qolib borishini oldini olish kerakligi, xonandalarimiz, raqqos va raqqosalarimiz bu narsaga jiddiy e'tibor qaratishlari kerakligi to'g'risida muxtasar fikr bildiriladi. Malakaviy bitiruv ishiga qo'shimcha qilib, turli xil kliplarda ijro etilgan raqslardan foto lavhalar tadqiqot ishidan o'rin olgan.

I – BOB

O'zbek estrada qo'shiqchiligi san'atshunoslar nigohida.

“Bugun biz tez sur'atlar bilan o'zgarib borayotgan, insoniyat hozirga qadar boshidan kechirgan davrlardan tubdan farq qiladigan o'ta shiddatli va murakkab bir zamonda yashamoqdamiz. Davlat va siyosiy arboblari, faylasuflar va jamiyatshunos olimlar, sharhlovchilar va jurnalistlar bu davrni turlicha ta'riflab, har xil nomlar bilan atamoqda. Kimdir uni yuksak texnologiyalar zamoni desa, kimdur tafakkur asri, yana birov yalpi axborotlashuv davri sifatida izohlamogda”⁵.

Ko'pchilik hozirgi davrga globallashuv davri sifatida qarashmogda. Bu gapda jon bor, chunki hozirgi paytda yer yuzining bir chetida yuz bergan voqeani odamlar tez fursat ichida dunyoning boshqa joyida turib xabar topishlari mumkin. Shuning uchun ko'pchilik hozirgi yashab turgan davrimizni texnikaning keskin taraqqiyoti davri deb izohlashmogda. Rivojlanishning bunday bosqichga ko'tarilishining bosh sababchisi fan va texnikadir. Bugungi kunda ilm-fandan ko'ra texnikaning kundan-kunga zo'rayib, kuchga to'lib borishi natijasida uning mavqei odimlab boryapti. Texnikaning yashin tezligida rivojlanib borishi, dunyo sanoati va san'atiga juda ko'plab yangiliklar, o'zgarishlar olib kirmogda. San'atga yangi-yangi atamalarni taqdim qilmogda.

Ha, darhaqiqat, buning yaqqol misolida kundan-kunga tobora avj olib, rivojlanib borayotgan estrada san'atini ko'rishimiz mumkin. “Estrada” so'zining lug'aviy ma'nosidan kelib chiqqan holda, ya'ni uni keng ma'noda umuman “sahna

⁵ Karimov I.A. “Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch”. T.,. “Ma'naviyat”, 2008, 110-b.

san'ati" tushunchasi sifatida va tor ma'noda "musiqiy estrada", ya'ni maxsus tayyorgarligi bo'lmagan tinglovchi osongina tushuna oladigan, hordiq chiqarish maqsadlariga xizmat qiluvchi shaklan va mazmunan oddiy, tez esda qolarli kuy va asosan raqsboq usullarni mujassam etgan musiqa namunalariga doir qo'llash maqsadga muvofiqdir⁶.

O'zbek musiqiy estradasi shakllanishi jarayonida folklor namunalari muhim zamin bo'lganligini alohida ta'kidlash zarur. Bunda, qo'shiq, lapar va ayniqsa, sho'x yallalarning raqsboqligi, yengil ohang-usullari qo'l kelgandi. Ayni paytda bu holat o'zbek musiqiy estradasining milliylik asosini ham ta'minlovchi omillardan bo'ldi.

Estradaning kelib chiqishi xalq og'zaki ijodi bilan bog'liq bo'lsa-da, u muayyan (tijorat-ommabop) san'at turi sifatida XIX asrda Yevropa yirik shaharlarining demokratik ijtimoiy-madaniy muhitida yuzaga kelgan. Estradaning asosiy shakli – maxsus joylarda, muntazam ravishda o'tkaziladigan estrada konsertidir. U bir nechta (yoki yakka) artist (so'z ustasi, xonanda, raqqos, aktyor va boshqalar)ning badiiy tugal, turfa mazmundagi kichik chiqishlaridan iborat bo'lib, ifoda vositalarining lo'nda va yorqinligi, o'ziga xosligi, ishtirokchilarning tomoshabin bilan bevosita muloqotda bo'lishi bilan ajralib turadi. Yevropada estrada tomoshalari dastlab kafe va restoranlarda, keyinchalik moslashtirilgan teatr binolari va boshqa joylarda o'tkazilgan. Ularda so'z ustalari, qo'shiqchilar, raqqos va raqqosalar, shuningdek, akrobat, ko'zbog'lovchilar ishtirok etgan. Hozirda estrada sahnalarida monolog, feleton, hajviy hikoya kabi nutq janrlari, estrada (milliy, bal va boshqa) raqsi, estrada qo'shig'i, ko'pgina sirk turlari (akrobatika, jonglyorlik, fokus va boshqa), teatr miniatyurasi, qo'g'irchoqbozlar chiqishlari, pantomima va boshqalar mavjud.

O'zbekistonda estradaning rivojlanishi quyidagi ko'rinishlarda bo'lgan: bir tomondan unda an'anaviy san'at namunalari sahna talablariga moslashtirib

⁶ Estrada (ispancha "estrado" "taxtasupa" deb tarjima qilinadi). O'zbekiston Respublikasi ensiklopediyasi. T.: Qomuslar bosh taxriyati, 1997, 274-b.

o'zgartirilgan (masalan, Tamaraxonim va M.Qoriyoqubov ijrosidagi xalq laparlarining sahna talqinlari, Yusuf Qiziq Shakarjonovning askiya an'analariga asoslangan konferanselik chiqishlari va boshqa) yoki milliy janrlar negizida yangi sahna turlari yaratilgan (M.Turg'unboyeva Usta Olim Komilov bilan birgalikda ijod qilgan "Paxta", "Pilla" kabi ommaviy sahna raqslari). Ikkinchi tomondan O'zbekiston estradasi chet el san'ati shakl va uslublari (masalan, jaz, estrada orkestri, myuzik-xoll)ni o'zlashtirish bilan boyidi.

1920-30-yillarda o'zbek estrada musiqasining shakllanish jarayonlarida musiqiy teatr jamoalarining xizmati bor, albatta. Chunki, yuqorida qayd etilgan yillarda faoliyat yuritgan truppalarning repertuarida nafaqat sahnaviy asarlar balki maxsus tayyorlangan konsert dasturlari ham mavjud edi. Bunday jamoalarga Muhiddin Qori Yoqubov rahbarligidagi O'zbek davlat konsert-etnografik truppasi (1926-27y.), Qo'qon musiqiy-dramatik truppasi (1927y.), Andijon hududiy o'zbek davlat truppasi (1928y.), O'zbek davlat musiqiy ansambli (1929y.), O'zbek davlat musiqiy teatri (1929y.), Y.Ohunboboyev nomidagi O'zbek davlat teatri (1932y.) kabi jamoalarni misol sifatida keltirishimiz mumkin.

Shuningdek, yangi jihatlar bilan boyib kelayotgan ommaviy san'at turini targ'ib etishda 1927-yili tashkil etilgan Toshkent radio qo'mitasining xizmati ham katta bo'ldi⁷. Jonli ijroda tinglovchilarga taqdim etilgan an'anaviy musiqa namunalarini Yunus Rajabiy rahbarligidagi ansambl ijro etgan edi.

1930-yillarda o'zbek estrada musiqasining shakllanishida asosiy vazifalarni o'z zimmasiga olgan tashkilotlar bu O'zbekiston davlat musiqa, estrada va sirk birlashmasi (1931-1936y.), O'zbekiston davlat estrada va O'zbekiston davlat filarmoniyasi (1936-1938y.).

San'atshunos olim S.Vohidov dastlabki o'zbek kino mahsulotlari uchun yaratilgan asarlar estrada musiqasi talablariga anchagina mos qo'shiqlar

⁷ Ushbu tashkilot asosida 1931-yilda O'rta Osiyo radio qo'mitasi, 1934-yildan esa O'zbekiston davlat radio qo'mitasi tashkil etilgan.

bo'lganligini ta'kidlaydi⁸. Jumladan, o'zbek kompozitorlari qalamiga mansub M.Burhonovning “Do'ppi tikdim”, “Yulduzning Toshkent haqida qo'shig'i”, “Maftun bo'ldim”, Manas Levivning “Sartarosh qo'shig'i” (“Maftuningman” kinofilmidan), Doni Zokirovning “Ko'chalar”, Ikrom Akbarovning “Bahor qo'shig'i” kabi qo'shiqlar bir tomondan milliy musiqa an'alarimizni davom ettirsa-da, ikkinchi tomondan ularda vals, marsh musiqasiga xos jihatlar namoyon bo'ldi. Bu esa haqiqiy o'zbek estrada qo'shiqchiligini yaratishda o'zgacha bosqich sifatida baholanishi mumkin.

Demak, o'zbek estrada qo'shiqchiligi XX asrning 20-50-yillari davomida mavjud ijtimoiy-siyosiy vaziyatlar ta'sirida shakllana boshlagan bo'lib, bunda, bir tomondan, an'anaviy janrlarni (lapar, yalla, mehnat aytimlari) sahnaga olib chiqish amaliyoti, ikkinchi tomondan esa, xalq musiqa janrlarini estrada talablari asosida qayta ishlash uslubi muhim o'rin tutgan edi.

Moziydan bizga yetib kelgan xabarlarga ko'ra, xonanadalikning ibtidosi qadimgi mehnat qo'shiqlariga borib taqaladi. Demak, uzoq o'tmishda ham ajdodlarimiz qo'shiq bilan hayot mashaqqatlarini yengillashtirganlar, qalblariga qo'ngan g'uborni qo'shiq vositasida yuvganlar. Buning ma'nosi shuki, qo'shiq faqat inson umriga emas, butun insoniyat umriga yo'ldoshdir.

“Ma'lumki, o'zbek estradasini mashhur xonanda Botir Zokirov boshlab berish bilan birga, uni yuqori pog'onalarga ko'targan edi”,- deydi yoshlarning sevimli kompozitori Alisher Ikromov,- estrada san'atimiz o'zbek milliy musiqa merosi an'alaridan foydalanib, eng zamonaviy elektron asboblarni yordamida yangi, o'ziga xos yo'nalishga ega bo'ldi”⁹.

Darhaqiqat, xushovoz va serqirra ijodkor, iqtidorli rassom, mohir aktyor, buyuk qo'shiqchi Botir Zokirovning ijodiy faoliyati estrada san'atining vujudga kelishiga zamin yaratdi, ya'ni o'zbek milliy estrada qo'shiqchiligining asoschisi sifatida tarixdan o'rin oldi desak mubolag'a bo'lmaydi. Uning bu yo'lda qilgan

⁸ Вахидов С. Эстрадная песня. Сборник. Узбекская музыка на современном этапе. Т., 1977, с.125

⁹ Jiyanov I., Estrada olamida nima gap? // “San'at” . Т., N 8, 1991, 14-b.

samarali mehnati albatta, tomoshabinlarning e'tiboridan chetda qolmagan. Zero, Botir Zokirovning sermahsul ijodidan bebahra qolgan inson topilmasa kerak. Botir Zokirov estrada qo'shiqlarini ijro etar ekan, ularda milliy ohang va talaffuzni saqlagan holda, beqiyos yutuqlarga erishgandi. Uni hatto mamlakatimiz tashqarisida ham hamon sevib tinglashadi. Bugungi o'zbek estradasini muammolarini hal qilishda, Botir Zokirovning merosiy ijodini, ish faoliyatini o'rganish muhim omil bo'lib hisoblanadi.

Mark Zaharov kulgi teatri aktyori Aleksandr Shirvint bilan birga "Sindbad-dengizchining 1973-sarguzashti" nomli myuzikl dasturiga stenariy tuzishdi. Yangi truppaga Botir Zokirov mashhur madaniyat arboblari taklif etdi. Yillar davomida "Myuzik-xoll"da Botir Zokirov bilan birga uning singlisi Luiza, ukalari Navfal, Farruh, Ravshan Zokirovlar, mashhur qo'shiqchilar Eson Kaidov, Natalya Nurmuhammedova, Vladimr Sarkisyan, Larisa Kandalova, Yunus To'rayev, truppaning boshlovchi aktyorlari – Elyor Ibragimov, Tohir Rahimov, Eduard Sumarokov, Ravshan O'roqov, bundan tashqari Inna Gorlina, Galina Zokirova, Tatyana Vlasova, Zulayho Rahmatullayeva, Natalya Varyuxina, Narzulya Galiyeva singari balet truppasi artistlari, doirachi Odil Kamolxo'jayev, O'zbekiston xalq artisti, xoreograf Tamara Yusupova va boshqalar hamkorlikda faoliyat olib bordilar¹⁰.

1978-yil Irkutskda Toshkent "Myuzik-xoll"ining so'nggi konserti bo'ldi. "Myuzik-xoll"ning ko'p yillar davomida yig'ilib kelgan tashkiliy va moliyaviy muammolarining hal qilinmaganligi 1979-yil kollektivni bo'linib, tarqab ketishiga sabab bo'ldi. Biroq, uning faoliyati o'zbek musiqa san'atida chuqur iz qoldirdi va milliy estradani sifatini yuqori darajalarga ko'tardi.

To'g'ri, bugungi kunda estrada san'ati ancha ildamlab ketdi. Buni tan olmasdan iloji yo'q. Botir Zokirov singari iste'dodli, serqirra ijodkorlarimiz ham

¹⁰ Турсунова Г. Батыр Закиров и «мюзик-холл» // Санъат, Т., N 2, 2004, 35-с.

yo'q emas. Ular tinimsiz izlanishda. O'zbek san'atini butun dunyoga tanitish yo'lida xizmat qilib kelmoqdalar.

Pop-musika milliy ko'rinishlarining butunlay boshqa, yangi bosqichga chiqib olishi aynan 1990-yillar bilan bog'liqdir. Milliy san'at chegaralaridan chiqib, qisqa muddatda chet el mamlakatlarida ham dong'i ketgan O'zbekiston xalq artisti Farruh Zokirov va "Yalla" vokal-cholg'u ansambli, O'zbekiston xalq artistlari Mansur Toshmatov, G'ulomjon Yoqubov, Nasiba Abdullayeva, Kozim Qayumov, Kumush Razzoqova, Nuriddin Haydarov, Yulduz Usmonova, Ravshan Nomozov, Azim Mullaxonov, Muhriddin Xoliqov, G'iyos Boytoev, Mohira Asadovalarning estafetasini yangi avlod estrada san'atkorlari davom ettirishmoqda – Ilhom Farmonov, Sevara Nazarxon, Anvar Sanayev, Anvar G'aniyev, Ozodbek Nazarbekov, Gulsanam Mamazoitova, Rayhon, Shahzoda, Ziyoda, Sardor Rahimxon, "Shahzod", "Xo'ja", "Shod", "Bojalar" guruhlari va yana ko'plab xonandalarimizning nomlarini sanab o'tishimiz mumkin.

XX asrning o'rtalarida jadal shakllana boshlagan o'zbek musiqiy estradasida 90-yillarga kelib keng tarmoqli ulkan "sanoat" darajasiga yetdi va tarixan qisqa muddat ichida o'ziga xos ta'sir kuchiga ega ommaviylik kasb etib ulgurdi. Xususan, estradaga oid qo'shiq janrlari yurtimizda o'tkazilayotgan Mustaqillik, Navro'z va boshqa ommaviy xalq bayram tantanalarida, respublikamiz teleradiosi hamda FM dasturlarida ("Yoshlar", "O'zbekim taronasi", "Grand", "Vodiy sadosi", "Oriyat dono", "Poytaxt" va boshqalar), shuningdek, maxsus tanlov ("Yangi taronalar"), festival ("O'zbekiston – Vatanim manim") va turli shou-konsertlarda ("Hech kimga bermaymiz seni, O'zbekiston"), qolaversa, ko'cha-ko'yda sadolanayotgan musiqaning salmoqli qismini tashkil qilmoqda¹¹.

Shu bilan birga Mustaqil Vatanimiz xalqaro, mintaqaviy va respublika miqyosidagi festival hamda ko'rik-tanlovlarni o'tkazish markaziga ham aylanib bormoqda. Jumladan, 1995-yildan e'tiboran to bugungi kunga qadar "O'zbekiston

¹¹Mullajonov D. M. 1990-yillar o'zbek musiqiy estradasida ohang muammosi. NDA, T., 2004, 3-b.

– Vatanim manim” qo’shiqlar festivali, 1997-yildan esa “Sharq taronalari” Xalqaro musiqa festivali o’tkazila boshlandi. Shuningdek, 1999-yili “Sado” Respublika professional yangi qo’shiqlar festivali, 2000-yili Bolalar san’at festivallari bo’lib o’tdi.

Istiqlol yillarida sifat jihatidan yangi bosqichga ko’tarilgan o’zbek estrada san’ati yosh avlodning ruhiy kamolotiga boshqa san’at turlariga qaraganda ko’proq ta’sir ko’rsatyapti. Zero, estradaning bunday natijalarga erishishida davlatimiz va hukumatimiz tomonidan soha rivojiga ko’rsatilayotgan e’tibor va g’amxo’rlik, yosh iste’dodlarning o’zlarini namoyon etishlari uchun yaratilayotgan shart-sharoitlar, milliy musiqiy an’analарimiz dunyo musiqa san’ati yutuqlari hamda eng yahshi jahon estradasi namunalarini o’rganishda keng imkoniyatlar ochilgani muhim omil bo’lmoqda.

Bugungi kunda xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimizni yuksak ma’naviy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda, ular qalbida Ona-Vatanga mehr-muhabbat va sadoqat tuyg’ularini kamol toptirishda, ularning ongi va shuurini turli zararli g’oya va oqimlar, jumladan “ommaviy madaniyat” ruhidagi salbiy ta’sirlardan himoya qilishda estrada san’atining alohida o’rni bor.

Estrada xonandalarimiz ijodi hamisha ham ana shu mezonlarga muvofiq kelyaptimi? “Bu haqda gapirganda, bir holatni afsus bilan aytishga to’g’ri keladi, - deb yozadi Prezidentimiz Islom Karimov “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” kitobida. – Ayrim yosh ijrochi va ijodiy guruhlarining jamoatchilik e’tiboriga taqdim etayotgan “asar” lari san’atning hech qanday talab va mezonlariga javob bermaydi. Nafaqat mavzu va musiqa, ijro usullari, balki sahna harakatlarida ham ochiqdan-ochiq ajnabiy “ommaviy madaniyat” ko’rinishlariga taqlid qilish, “yulduzlik” kasaliga chalinish holatlari tez-tez uchrab turayotgani chinakam san’at muhlislarini ranjitmasdan qolmaydi, albatta”¹².

¹² “O’zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasi, N 48, 2011, 25-noyabr, 1, 5-sahifalar.

O'zbekistonning buyuk kelajagini yoshlarimiz barkamolligida ko'rayotgan yurtboshimiz 1998-yili Navro'z bayrami bo'yicha mas'ul ijodiy guruh bilan uchrashuv paytida: "O'zbek estrada musiqasi qandoq bo'lishi kerak?", "XXI asr O'zbekiston bunyodkor yoshlari mumtoz musiqiy merosimiz bilan bir qatorda estrada musiqasidan qanday ozuqa olishi kerak?"¹³ – kabi muhim savollarni o'rta tashlashi va mutaxassislar e'tiborini shu nuqtalarga jalb etishi bejiz emas, albatta.

1991-2001- yillar mobaynida ulkan "industriya" darajasiga yetgan O'zbekiston estrada musiqasi tobora mustaqil yo'nalish va o'zgacha ta'sirchan kuchga ega bo'lgan ommaviy san'at turi maqomiga erishmoqda.

Madaniy jamoatchiligimiz, avvalambor musiqashunos, ustoz san'atkorlar, kompozitorlar, yozuvchi va jurnalistlar, ko'p sonli san'at ixlosmandlarining, umuman olganda shu yurtda yashab kelayotgan har bir shaxsning o'zbek estradasi haqida o'z fikr va mulohazalari mavjud. O'z kasbining ustalari bo'lmish san'atshunoslar esa bu borada o'z fikrini ochiq bildirib borishi, shu tariqa yoshlarimizga to'g'ri tarbiya berish ham farz, ham qarz deb o'ylaymiz.

Qo'shiqning joni kuy bo'lsa, jismi she'rdir. So'z va kuy jismu jon yanlig' bir butun bo'lgan joyda haqiqiy qo'shiq vujudga keladi. Odatda bunday uch unsur – so'z, kuy va xonishdan tug'ilgan farzand – qo'shiqning umri boqiy bo'ladi. Shunday she'rni yozgan shoir ham, unga kuy bastalagan bastakor ham, uni ijro etgan xonanda ham dunyoga kelganidan rozi bo'lishga haqlidir, zero dunyoda eng mushkul va murakkab ish odamlar ko'ngliga yo'l topish ekanligi hammaga ma'lumdir. Shu narsani mamnuniyat bilan aytishimiz mumkinki, bizning ana shunday qo'shiqlarimiz va bunday qo'shiqlarimizni maromiga yetkazib kuylovchi xonandalarimiz juda ko'plab topiladi.

Shuni aytib o'tish joizki, qo'shiqni yaratish va uni ijro etish san'atkordan alohida iste'dod va katta mahorat talab etadi. Qo'shiq o'z-o'zidan yaralmaydi, albatta. Buning uchun birinchi galda she'r, ayni matnning purma'noligi, undagi

¹³ Milliy estrada musiqasi // O'zbekiston san'ati (1991-2001-yillar) T.: "Sharq", 2001, 135-b.

yozilgan va kuylanajak har bir so'zlarning xalqchilligi, uning texnikasi (qofiyasi, turoqi, vazni) katta ahamiyatga ega bo'lib, bular qo'shiqning eng asosiy qismi hisoblanadi. Keyin esa unga mos ravishda musiqa yaratiladi. Musiqa ham matnga mos holda yozilib, undagi ma'nolarni o'zining sho'x yoki dardli ohanglari bilan ifodalashi lozim. Shuningdek, kishi tinglaganida uning qalb so'zlarini ifodallasagina uni haqiqiy qo'shiq deb atash mumkin.

Har bir tinglovchi biron bir qo'shiqni tinglaganida, albatta, birinchi galda uning ma'nosiga e'tibor beradi. Sababi tinglovchi o'zi uchun kerakli bo'lgan xulosani ham, madaniy hordiqni ham ana shu qo'shiq matnidan kelib chiqqan holda chiqaradi. Agar qo'shiq matni sayoz yoki tushunarsiz bo'lsa, u holda bu qo'shiq tinglovchiga yoqmaydi va uni qoniqtirmaydi. Shuning uchun ham qo'shiq yaratayotganda uni ommaviylik talabiga qay darajada javob bera olayotganligi haqida yahshilab o'ylash lozim. Bu talablarni inobatga olgan holda qo'shiq yaratilsagina, tinglovchi qalbidan to'laqonli joy olaoladigan, sifatli qo'shiq yaralishi mumkin.

Ko'pincha biz estrada san'ati olamini shou-biznes olami deb ham ataymiz. Lekin san'at shou-biznes bo'la olarmikin?

“Bizda shou-biznes bormi o'zi? Kimlardir uchun ehtiyoj bo'lib qoldi xolos, - deydi xonanda Umida Mirhamidova,- mening fikrim bo'yicha, adashayotgan bo'lishim mumkin, lekin, shou-biznes bor deb fikrlayotganlardan uzr so'rayman. Lekin, menimcha bizda shou-biznes yo'q. Bizda shou-biznes bilan shug'illanadigan mukammal insonni o'zi yo'q. Harakat qilishyapti, lekin bu biznes emas”¹⁴.

Albatta, bu borada har kimning o'z shaxsiy fikri bor. Hozirgi kunda qobiliyatli, iste'dodli, san'at olamiga endigina qadam qo'yayotgan havaskor yoshlarimiz juda ham ko'p. Ular o'z mahoratlarini, o'z san'atlarini butun ommaga namoyish etishga, xalqqa tanilishga intilmoqdalar. Xo'sh, ular buni uddasidan

¹⁴ Fattaxova F. San'at shou-biznes emas. // Ko'ngil ko'chalari. T., 49 (443)-son, 09-15 dekabr, 2010, 12-b.

chiqishyaptimi, hammani ko'nglidan birdek joy olaolishyaptimi? Havaskor yoshlarimizning ijodlari, bugungi kundagi yetishib kelayotgan yutuqlari haqida ustoz san'atkorimiz Ortiq Otajonovning fikrlari quyidagicha:

“Hozir san'at yo'lidagi yoshlarimiz nimani xohlasa aytishyapti. Lekin sal milliylikni unutib qo'yib, estrada yo'lida yurib, horij kuylaridan ko'p foydalanishmoqda. Ulardan jonli ijroni talab qilish kerak. Bir xillar bor, bir-ikki klip qilib, ko'p aylantiradi va ommaning joniga tegib qoladi. Ovozi yoqmasa xonanda uzoqqa borolmaydi, chunki odamga tez yetib boradigan narsa bu ovoz. Yana shoir, bastakor, aytadigan ham o'zlari. Biz tushunmaydigan ijrolar bo'lmoqda. Endi xalq saralab oladi, bu mardu maydon.

Hozirgi kliplarda ashula aytayotgan xonandaning yuzini ham aniq bilmaysan. Ular bir kinolarning orqasida o'zini ko'rsatgan bo'ladi, nima deyotganini ham tushunmay qolasan. 80 foiz kliplarning ma'nosi yo'q. Ular klip deganda uch yuzta ko'rinish kerak deb tushunadi. Yo'q bunday mumkin emas. Uchta ko'rinish bo'lsin, odam bemalol ko'radigan bo'lsin. Ma'nosi kengroq bo'lishi kerak”¹⁵.

Ustoz san'atkor Ortiq Otajonov aytganlaridek, 1990-yillar musiqiy estradasida avvallari ma'n etilgan horij estradasining bizning hududga keng kirib kelishi hamda ularning an'anaviy musiqiy shakllari bilan qorishuvi natijasida o'ziga xos yo'nalishlar yuzaga keldi. Bu jarayonlar esa ommaviy qo'shiqchilik sohasida kuchli namoyon bo'lmoqda. Ko'plab xonandalarimiz horij musiqasi bilan o'zimizning milliy kuylarimizni uyg'unlashtirib, yoki bo'lmasam horij musiqasini to'laligicha ko'chirib olgan holda qo'shiq qilib kuylashmoqda. Bundan tashqari, bugungi kunda musiqa savodi bo'lmagan juda ko'p havaskorlar estrada sohasiga kirib kelgani sir emas. Ular orasida katta sahnalarni “zabt” etib, tezda shuhrat topganlari ham bor. Yoshlarning san'at bilan shug'ullangani yahshi, albatta. Lekin millionlab tinglovchilarga qaratilgan “katta sahna” har bir iste'dodli

¹⁵ Fattaxova F. San'at shou-biznes emas. // Ko'ngil ko'chalari. T., 49 (443)-son, 09-15 dekabr, 2010, 12-b.

san'atkorlardan katta mas'uliyat talab qilishini ham unutmaslik kerak. Bugungi kunda estrada ana shunday katta sahnalardan biriga aylangan ekan, demak, uning doirasida faoliyat ko'rsatayotgan har bir estrada xonandasi yoki guruhi ma'lum darajada malaka va nazariy bilimga ega bo'lmog'i kerak.

San'atshunoslik fanlari nomzodi I. Dadajonova, ham quyida o'zlarining bu boradagi tanqidiy fikrlarini bildirib o'tdilar:

“Bugun biz pop-musiqamizdagi yangi nomlar haqida ko'p hollarda “Zamin yulduzlari”, “Nihol”, “Tarona-rekords” va hokazo mukofotlar taqdimotlari asnosidagina eshitamiz. Erta-yu kech uzluksiz musiqa tinglaganimiz holda uni anglay bilmaymiz – qanday o'zgarishlar, tendensiyalar mavjud, peshqadamlik qayerda-yu, turg'unlik qayerda – tushunarsiz.

Ilgarilari ijrochi (xonanda, sozanda) pop-musiqaning bosh qiyofasi edi va industriya o'z rejalarini tuzishda, artistlar ham shaxsiy mezonlar – ovoz, joziba, betakror sahna uslublariga ko'ra elakdan o'tkazilardi. Hozirgi kunda artist ko'p hollarda bir marta ishlatiladigan tovar. Ijrochining tashqi ko'rinishi-yu bir navi hatti-harakatlari bo'lsa – bas, u sahnada. Buyuk artist va kompozitorlar yo'q hisobi. Qo'shiqlar ularning ijrochilari kabi juda tez unut bo'lyapti. Aksariyat kompozitsiyalarning umri ular radio va teleefirlarda ketadigan payt bilan o'lchanadi.

Pop - musiqa deb ataluvchi mazkur yirik sohada maxsus ma'lumotli kishilarning o'zi sanoqli. Xonanda-yu sozandalar, kompozitorlar, bastakorlar, prodyusserlar, **menejer**¹⁶lar, chiroq ustalari, xoreograflar, ovoz rejissorlari... xullas shou-biznes uchun kerakli boshqa mutaxassislarni maxsus o'quv yurtlarida jiddiy tayyorlash zaruriyati dolzarb tus olgan.

Musiqa hozir ijodiyot emas, hatto hunarmandchilik ham emas, balki rosmana konveyer bo'ylab harakatlanayapti. U nihoyatda osonlik bilan ijodiyotdan biznesga aylandi-qoldi. Biznesda muhimi – samaradorlik, ya'ni qisqa vaqt

¹⁶ Menejer – qo'shiqchi yoki guruhning targ'ib ishlarini boshqaruvchisi.

mobaynida minimal harajatlar bilan daromad olish. Texnologiyaga aylangan musiqa qalbini butkul yo'qotib qo'ydi. Bugun musiqiy inflyatsiya avj pardasida"¹⁷.

Ha, darhaqiqat, musiqa... qisqa va jarangdor so'z. Lekin insoniyat, kishilar hayotida u o'ynaydigan rol esa beqiyos ulkandir. Insonning yer yuzida paydo bo'lgan davridan boshlab, musiqa unga doimiy hamroh bo'lib kelmoqda, chunki inson hayotidagi quvonch va qayg'ular, oddiy va bayram kunlari doimo qo'shiq va raqs bilan, turli musiqa asboblarini chalish bilan yakunlangan.

O'zbek estrada san'ati sohasi tashkiliy o'zgarishlar bilan birga balki mazmun-mohiyat jihatlari bo'yicha ham yangilanib bormoqda. Shu bilan birga estrada musiqa vositasida eng olijanob va muqaddas hisoblangan Vatanga bo'lgan mehr-muhabbat va sadoqat tuyg'ularini ifoda etish, ularni millionlar qalbiga jo etish imkoni mavjuddir.

Abdulla Qodiriy nomidagi Toshkent davlat madaniyat instituti xodimi Mirmuhsin G'ofurov milliy qo'shiqchilik san'ati haqida quyidagilarni ta'kidlab o'tadi:

“O'zbekiston iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy hayotida ro'y berayotgan hozirgi tub o'zgarishlar ham o'zbek milliy madaniyatini, jumladan, milliy qo'shiqchilik san'ati masalalarini, ushbu san'at turining milliy istiqloq g'oyasini fuqarolar ongiga va qalbiga singdirishdagi o'rnini belgilash muammolarini hal etish uchun ham ma'lum shart-sharoitlar yaratdi”¹⁸.

O'z maqolasida M.G'ofurov qo'shiqchilik san'atining rivojlanishida bir necha omillarini belgilaydi:

¹⁷ Dadajonova I. Zamonaviy o'zbek estradasi: shou-biznes kesimidagi musiqiy inflyatsiya//O'zbekiston san'ati: Globallashuv va milliy o'ziga xoslik yosh olimlarning ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. T., “Yangi asr avlodi”, 2004, 47-49 b.

¹⁸ G'ofurov M. O'zbek milliy qo'shiqchilik san'atida vatanparvarlik masalalari: milliy qo'shiqchilikni rivojlantirish muammolari va yechimlari xususida // O'zbekiston san'ati makon va zamon talqinida: O'zbekiston yosh san'atshunolarining maqolalar to'plami. O'ZFA; tuzuvchi Z.Muradova. T.: “San'at”, 2011, 172-b.

- qo'shiqchilik san'ati milliy mafkuramizning bosh istiqlol g'oyasi - ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot qurishdan iborat g'oyani keng jamoatchilik ongiga singdirishda muhim rol o'ynamoqda.

- istiqlol tufayli badiiy ijodkorlar, jumladan, qo'shiqchilik san'ati vakillarining ijodiy erkinlikka ega bo'lishi, ularning o'tmish madaniy merosiga suyangan holda ushbu san'at turining zamonaviy muammolarini hal etish imkonini bermoqda.

- ayni paytda O'zbekistonda ro'y berayotgan va milliylikka asoslangan madaniy jarayonlar, bastakorlar uyushmasi faoliyatidagi ijobiy o'zgarishlar, "Yagonasan, muqaddas Vatan!" qo'shiq bayramining mamlakat miqyosida o'tkazilishi, milliy qo'shiqchilik san'atining ovro'pacha usullarga nisbatan ustuvor tavsifga ega bo'lishi – bularning barchasi mamlakatimizda qo'shiqchilik san'atining rivojlanishiga imkon yaratmoqda.

- mamlakatimizda qo'shiqchilik madaniyati va uni rivojlantirishning boshqaruv tizimi bilan uyg'unligi ta'minlandi. "O'zbeknavo" estrada birlashmasi va uning hududiy bo'limlari faoliyati kuchaymoqda.

1996-yil 5-apreldagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining (PF-1419 son) Farmoniga binoan "O'zbeknavo" gastrol-konsert birlashmasi tashkil etildi. 2001-yilda Vazirlar Mahkamasining "Estrada qo'shiqchilik san'atini yanada rivojlantirish to'g'risida"gi (2001-yil 26-iyundagi 272-sonli) Qarori e'lon qilindi. Qarorda Respublika keng musiqiy jamoatchilik vakillari, estrada san'atining taniqli namoyondalari, "Ma'naviyat va ma'rifat" Kengashi, Madaniyat ishlari vazirligi, O'zteleradiokompaniya, Yozuvchilar uyushmasi, O'zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidov raisligida Milliy estrada san'atini rivojlantirish va muvofiqlashtirish Kengashi tuzildi, uning asosiy vazifasi etib:

- estrada jamoalari, yakkaxon ijrochilar hamda boshqa san'atkorlarning faoliyatini muvofiqlashtirish, ularning ijodiy, iqtisodiy, huquqiy manfaatlarini himoya qilish;

- zamonaviy estrada san'atining o'zbek musiqa madaniyati taraqqiyotidagi o'rni, g'oyaviy-badiiy yo'nalishlari, uni milliy va umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg'unlikda rivojlantirish tamoyillarini belgilash;

- mamlakat miqyosida o'tkaziladigan bayramlar, festivallar, ko'rik-tanlovlar, tomosha-shoular, xalq sayllari va boshqa madaniy-ma'rifiy tadbirlarga doir tavsiyalar tayyorlash;

- milliy estrada san'atining monitoringini tashkil etish, sohani rivojlantirish masalalariga bag'ishlangan turli anjumanlar, ilmiy-ijodiy simpoziumlarni muntazam ravishda o'tkazib borish, o'z davriy nashrlarini yo'lga qo'yish;

- soha rivojiga munosib hissa qo'shayotgan san'atkorlarning nomzodlarini davlat mukofotlariga tavsiya qilish, o'zining turli nufuzli mukofotlarini ta'sis qilish, estrada namoyondalari, avvalambor, yoshlarni moddiy va ma'naviy jihatdan rag'batlantirish, tegishli o'quv yurtlariga tavsiya etish va hokazolar ko'rsatilgan edi¹⁹.

Xalq musiqa namunalarini musiqiy estrada yo'nalishlarida qayta ishlab ijro etish an'anasi bir qadar aniq shakllanib bo'ldi, desak o'rinli bo'ladi. Musiqashunos olimlarimiz fikricha, mazkur jarayonlar natijasida yosh avlodning xalq musiqa ijodi hamda kasbiy musiqa namunalari bilan tanishishi va ulardan bahra olish imkoni yaratildi. Zero, "xalqimizning mavsumiy marosim qo'shiqlaridan tortib, to qo'shiq, terma, lapar, yalla, ashula singari aytimlarigacha ("Majnuntol", "Boychechak", "Yomg'ir yog'aloq" va boshqa) o'z davrasiga tortayotgan ushbu estrada yo'nalishi musiqiy folklorlarning shahar sharoitida o'zgacha yashash shakli va targ'iboti sifatida baholanishi mumkin"²⁰.

Ammo ta'kidlash joizki, buyuk ajdodlarimiz yaratgan mumtoz asarlar ba'zida musiqiy estrada uslublariga xos yengil-yelpi ishlovlar bilan ijro etilmoqda.

¹⁹ Abdurahimov B, Rasultoyev J, Norbo'tayev Y. O'zbek estrada qo'shiqchiligi: taqlid va talqin. T., 2006, 4-5-b.

²⁰ Ibrohimov O.A., Karomatli F.M., Yunusov R.Yu. Xalq musiqa ijodiyoti// O'zbekiston san'ati (1991-2001 yillar), T., 2001.

Oqibatda ularga xos ulug'vorlik va sermazmunlik jihatlari nihoyatda jo'nlashib, badiiy salmog'i ham tushib ketmoqda. Tabiiyki, bu kabi holatlar jamiyatimizning ayrim ijtimoiy qatlamlari nazdida badiiy merosning qadrsizlanishiga sabab bo'lishi hech gap emas. Buning oqibatlari nechog'lik ma'naviy tanazzul ekanligini, hatto, tasavvur qilib bo'lmaydi.

Birinchi bobga xulosa qilib aytishimiz mumkinki, o'zbek estrada qo'shiqchiligi o'z rivoj yo'liga ega. U XX asrning 50-60-yillaridan shakllanishni boshlagan. 70-yillarga kelib esa o'zbek estrada qo'shiqchiligida Botir Zokirov nomi mashhur bo'ladi va u bu yo'nalishning yanada rivojlanishiga katta hissa qo'shadi. 90-yillarda va XXI asrning boshlarida Yulduz Usmonovanning ijodi katta e'tiborga loyiqdir. Hozirda esa kundan kunga turli xil estrada musiqasi yo'nalishlaridagi ko'plab xonanda va guruhlar o'z sahnaviy faoliyatini olib bormoqda. O'zbek estrada qo'shiqchiligi doimo san'atshunoslar nigohida bo'lgan. Aynan mustaqillik yillarida bu yo'nalishga katta e'tibor berilmoqda. O'zbek estrada qo'shiqchiligining tarixiy jarayonlari va zamonaviy muammolari haqida ko'p maqolalar, kitoblar²¹ hamda ilmiy ishlar²² yozilmoqda.

San'atshunoslar estrada musiqani keng tarqalgan ommabop yo'nalish deb, uni tarbiyaviy ahamiyati, estetik va badiiy didni shakllanishi, hayot tarzini va xulq-atvor uslublarni targ'ibot qilishini tushunib turib, uni ta'sir kuchini qanchalik yuqoriligini anglagan holda hozirgi o'zbek estrada qo'shiqchiligidagi bo'layotgan hodisalarni jon kuydirib baxs – mulohazalar qilishmoqda. Xususan, ushbu san'atni shou-biznes mahsulotiga aylanganligi va o'zining asosiy maqsad va vazifalarini bajarmaganligini tanqid qilib yozishmoqda. Shu kabi dolzarb muammolar keng doirada baxs-muhokama qilinib, choralar ko'rilmogda. Masalan, "O'zbeknavo", "Akfa Media" birlashmalarini ish jarayonlari san'atkorlarni saralab, ularni o'z iste'dodlarini ommaga havola qilishlari uchun ko'mak bermoqda.

²¹ Abdurahimov B, Rasultoyev J, Norbo'tayev Y. O'zbek estrada qo'shiqchiligi: taqlid va talqin. T., 2006. Амануллаева Д., Аманова Н. История джаза и эстрадной музыки. Т., 2010.

²² Mullajonov D. 1990-yillar o'zbek musiqiy estradasida ohang muammosi. S.f.n. disertatsiyasi. T., 2004. Tursunova G. Karim Zokirov va uning sulolasi XX asr O'zbekiston musiqi madaniyati kesimida. T., 2008.

II - BOB

Yangi davr o'zbek estrada qo'shiqchiligida raqs san'atining ahamiyati.

I.A.Karimov: “Biz milliy ma’naviyatni har tomonlama yuksaltirish masalasini o’z oldimizga asosiy vazifa qilib qo’yar ekanmiz, bugungi kunda ma’naviyatimizni shakllantiradigan va unga ta’sir o’tkazadigan barcha omil va mezonlarni chuqur tahlil qilib, ularning bu borada qanday o’rin tutishini yahshi anglab olishimiz maqsadga muvofiq bo’ladi”²³.

Raqs ilohiy bir kuch bo’lib, insonni beihtiyor ezgu tuyg’ular olamiga chorlaydi. Raqs, bu – musiqa yordamida kishining ichki tuyg’ulari va dardlarini hatti-harakatlar asosida ochib beradigan so’zsiz san’atdir. Raqs olami insonga faqatgina go’zallik, xush kayfiyat, dunyoning kamalak ranglaridan zavq olishdek baxtli onlarni hadiya eta oladigan olamdir. Bu olamda inson o’zini cheksiz samoda suzgandek, ummon kabi bir olam baxtga cho’mgandek va go’zal harakatlar orqali qushdek yengil parvoz qilgandek bo’ladi. Raqs insonga bir dunyo quvonch, estetik zavq baxshida etadi. Raqs jozibasini, uni qanchalar insonga rohat bag’ishlashini, faqatgina raqsni jon dili bilan ijro etibgina his qilish mumkin.

Raqs, san’atning boshqa turlari kabi inson hayotini va butun olamni o’rganishning badiiy usuli hisoblanadi. Turmush jarayonlarini o’rganadigan fanlar, tushunchalar vositasida, ya’ni mavjud xulosalar bilan fikrlaydi. San’at turmush jarayonlarini o’rganar ekan, ularni fazoviy, badiiy umumlashtirilgan obrazda tasavvur qiladi.

²³ Karimov I.A. “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch”. Toshkent. “Ma’naviyati, 2008, 29-b.

Raqs – zamonaviy va makoniy san’atning shunday turiki, unda badiiy obraz inson gavdasining ritmik uyushgan tasviriy va ifodali harakatlari bilan yaratiladi. Raqs gavdaning boshlang’ich holatidan ritmik gavda harakatlari turkumi orqali yakuniy holatga o’tish orqali vujudga keladi.

O’zbekiston diyorida yashagan xalqlar orasida raqs san’ati turmush sharoitlari, diniy marosimlar, bayramlar bilan bog’liq holda qadimdan taraqqiy etgan. O’sha paytlardan boshlab ular ilk marotaba oddiygina, ularni hatto raqs harakatlari deb ham bo’lmaydi, oddiy qo’l harakatlari, oyoq harakatlari orqali asta-sekin raqs harakatlari kelib chiqqan. Odamlar xursandchiliklarida, har xil marosimlarda bilib bilmay raqsga tushishgan. Ularda raqs harakatlarini aniq harakatlari bo’lmasada, ular raqslarni butun tanalari bilan, bor kuchlari bilan ado etishga harakat qilishgan. Ilk odamlar hayotida raqs bu hayot harakatlari yo’llarini o’rgatuvchisi ham bo’lgan. Ov qilingandan so’ng o’ldirilgan hayvon atrofida har xil marosimlar o’tkazishgan va raqslarga tushishgan. Bundan tashqari ular har xil ilohiy kuchlarga sig’ina boshlashgan: yomg’ir, chaqmoq, suv toshqinlari, yong’inlar. Qurg’oqchilik paytida yomg’irni chaqirish maqsadida bayramlar qilib qo’shiq aytishar, raqsga tushishar edi. Yana shu kabi marosimlar ko’p o’tkazib turishar edi. Raqqoslar odatda maxsus kiyimlar, niqoblar, har xil murakkab bosh kiyimlarni kiyishgan. Ilk odamlar raqslari orqali o’z xudolari bilan aloqa qilishga, xudolari ularni qiyin ahvoldan olib chiqib ketishiga ishonganlar.

O’zbekistondan topilgan qadimiy manbalar – qoyatosh rasmlari, arxeologik qazilmalar, amaliy bezak san’ati namunalarida ham boshqa turli tasvirlar qatorida raqs tushayotgan qiyofalar, diniy mifologik lavhalar, sayl va muhim marosimlar aks ettirilgan.

O’zbek xalqi o’zining qadimgi xoreografiya san’atini va uning ustozlari, raqqos va raqqosalar, mohir o’yinchilarning ijodi va kashfiyotini tuzumlar o’zgargan eng qaqshatqich yillarida ham ko’z qorachig’iday saqlab qola oldi. Qadimdan biron xalq yig’inimi yoki marosimmi, sayl va tomoshalar, bayram va

tantanalar, ma'raka va to'ylar yoki bazmlar qo'shiq, musiqa va raqs san'atisiz o'tmas edi. Bizning asrimizgacha yetib kelgan rang-barang va turli janr va shakllarda ko'rinadigan o'zbek raqs san'atining chuqur ma'noga ega bo'lgani, undagi murakkab xoreografiya tili, raqs tuzilishidagi orginallik, o'zbek xoreografiya san'atining uzoq asrlik yo'l bosib o'tganidan, tinimsiz taraqqiyot va boyish jarayonini boshdan kechirganidan dalolat beradi. San'atshunos olim L.Avdeyeva o'zbek xalqining qadimgi xoreografiya san'ati va undagi tur va janrlarning rang-barangligi, boy an'analari kishini hayratda qoldiradi, deb yozadi. O'zbek raqs san'ati, deydi u, "Odamning sonsiz-sanoqsiz sevgi, tuyg'u, his, holat, chuqur tafakkur va hatto falsafiy fikrlarini, kuchli dramatik kechinmalarini, eng nozik tomonlarigacha to'la ifodalash qobiliyatiga ega"²⁴.

Qaysi davlatda dunyoga kelgani, ya'ni tug'ilganiga qarab, raqs o'sha davlatning, o'sha xalqning madaniyatini, urf-odatlarini o'zida namoyon etgan. Zamon, hayot qonunlari o'zgarishi bilan raqsning harakatlari, qonun-qoidalari ham o'zgardi. Ilk insonlarning tabiat bilan chambarchas bog'liq bo'lgan hayotlari orqali ilk raqs, ilk raqs harakatlari ham paydo bo'lgan. Ilk odamlar raqslari orqali o'z hissiyotlarini ifoda etganlar. Shu bilan bir qatorda raqs insonlar bilan dunyo orasida aloqa vositasini ham bajargan.

Qadam – raqsning eng boshlang'ich unsuridir. Bu harakatning eng oddiy ko'rinishidir. Har bir harakatning qonuniga ko'ra har bir qadam yangi turtki va tinch holatdan yangi holatga o'tishdir.

Zamonaviy o'zbek raqsi boy merosga ega bo'lib, qadim zamonlardan rivojlangan edi. O'zbek raqsi asosan gavdaning nafis harakatlariga asoslangan bo'lib, mazmun qo'l, barmoq, yelka, bel harakatlarining turli xil uyg'unligida, turlicha usuldagi odimlar, yo'rg'alash, harakatda va bir joyda gir-gir (charx)

²⁴ Umarov M.B. Estrada va ommaviy tomoshalar san'ati. T.: Yangi asr avlodi, 2009.

aylanishlar, gavdani bir holatda tutib turish, yengil sakrash va boshqa harakatlarda ifoda etiladi.

O'zbek raqsi bizgacha, boshqa Sharq xalqlarida bo'lganidek, ikki ko'rinishda – an'anaviy mumtoz raqs va xalq raqsi (folklor) ko'rinishida yetib kelgan.

An'anaviy mumtoz raqs san'atida Farg'ona ("Katta o'yin"), Buxoro ("Maqom raqsi") va Xorazm ("Maqom ufori") raqs maktabi mashhur. Bu raqslarda qahramonlik, ishqiy lirika, osmon va tabiat hodisalari majoziy aks ettiriladi, mehnat va muhabbat, hayot shavqi va o'lim qayg'usi, baxt va baxtsizlik kabi mavzular sof raqs vositalarida ifodalanadi.

Xalq raqsi rang-baranglikka ega, bu turli mintaqalarda ayrim janr, mavzu, raqslarga qiziqish turlichaligi bilan belgilanadi. Xalq raqslari kulgili, lirik, dramatik janrlarga ega bo'lib, mehnat, maishiy muhit, inson va tabiatning o'zaro munosabatlari barcha raqs turlarida ancha sodda aks ettiriladi. Xalq raqsi ikki turga – yilning ma'lum davrida muayyan sharoitlarda ijro etiladigan raqsar (bahorni qarshilash, hosil yig'ish, birinchi egatni olish va boshqalar) va mehnatdan bo'sh vaqtlar (sayllar)da o'yin-kulgu tarzida ijro etiladigan raqslarga bo'linadi. Raqsar ijrosida ba'zan musiqa asboblari o'rniga yog'och qoshiq, qayroq toshlardan foydalaniladi, imo-ishora, mimika yorqin ko'zga tashlanadi, hayvon, qush, hatto baliqlarga taqlid qilish keng qo'llaniladi.

Raqs, ayniqsa, mahalliy an'anaviy qiziqchilik va masharabozlik teatri san'atida, shuningdek, milliy sirk san'atida muhim ahamiyat kasb etib, unda ijtimoiy mavzular katta o'rin tutgan. Inson tabiatidagi salbiy hislatlar yorqin ifodalangan kulgili raqsar anchagina.

H.Шерметьевская estrada raqsini quyidagi turlarga ajratadi:

- akrobatik raqs, u o'z ichiga – qahramonlik, lirik, grotesk an'anaviy mavzular rang-barangligini oladi;

- klassik raqs deyarli akrobatik raqs bilan mohirlik borasida jipslikka ega;
- barcha turlardagi syujetli – harakterga ega raqslar;
- xalq raqsi, yakkaxon va ommaviy raqslarni estrada raqsi xususiyatlariga moslashtirish;
- harbiy raqs – pantomima elementlariga qurilgan ommaviy va yakkaxon raqslar, harbiy va xalq musiqasiga moslashtirilgan xalq raqsi va safdagi harakatlarga moslashtirilgan raqslar;
- qizlar ommaviy raqslari – jaz musiqasi sadosida ijro etiladigan sinxron va jismoniy harakatlar uyg'unligi;
- ritmik raqslar, yoki zamonaviy ritmlarga moslashgan ritmik raqslar va boshqalar²⁵.

Hozirgi kunda o'zbek estradasida barcha raqslarni quyidagi guruhlarga bo'lish mumkin:

1. Akrobatik raqs, uni ichiga sport, sirk elementlari kiradi;
2. Klassik raqs – deyarli akrobatik raqs bilan mohirlik borasida jipslikka ega;
3. Barcha turdagi syujetli raqs;
4. Syujetsiz raqs;
5. Zamonaviy milliy raqs;
6. Zamonaviy raqs;
7. Jaz musiqasi sadosida ijro etiladigan sinxron va jismoniy harakatlar uyg'unligi;

²⁵ Шерметьевская Н.В. Танец на эстраде. М., 1985., 9 с.

8. Ritmik raqslar yoki zamonaviy ritmlarga moslashgan ritmik raqslar va yana “xip-xop” va “rep”.²⁶

Agar xalq raqslarida an’analarga qat’iy rioya qilinsa, estrada qo’shig’i butun estrada tomoshasi yo’nalishini belgilaydi. Estrada raqsi bu deyarli hamisha o’z ixtiyori bilan emas, balki bu asar muallifi talqin etgan qandaydir obraz shaxsi tomonidan sahnaga chiqishdir. Ammo chet kishilar ishtirokida sahnada obrazning hayotiy tarzini qayta yaratish faqatgina kasbiy mahoratga va qobiliyatga ega bo’lgan kimsagina, ya’ni malakali artistgina bajara oladi.

Konsert ijrochisi biror soniya bo’lsa ham tomoshabin, muxlis e’tiboridan chetda qolmaydi. Butun konsert davomida estrada ijrochisi kaftdagidek maydonda bo’ladi. Eng muhimi shundaki, estrada raqsi ijrosining o’zi qisqagina ajratilgan vaqtda badiiy obrazni to’laqonli ochib berish uchun o’z ijodiy kuchini bir nuqtaga to’plashi zarur. Yana shuni ham ta’kidlash lozimki, estrada raqsi ma’lum vaqt, ya’ni bir necha daqiqa tomoshabin e’tiborini tortib turishi kerak. Estrada raqsida bunday ishlash uslubi o’z chiqishini nihoyatda ixchamlashtirishga majbur qiladi, ya’ni o’zining imo-ishoralari, mimikasi, harakatlarida muhim jihatlarnigina qoldiradi. Shuning uchun ham estrada raqqosi o’zining bor mahoratini ishga solib, tomoshabin diqqatini tortolsagina g’alaba qozona oladi.

Bundan tashqari, estrada raqsida eng avvalo tashqi ko’rinish bilan tasavvur uyg’otish muhim sanaladi. Raqqos sahnaga chiqishi bilan o’ziga tomoshabinni to’liq qarata olsa, bu uning yutug’idir. Libos konsert nomerining muvaffaqiyatini ta’minlovchi muhim omil bo’lib hisoblanadi. Sababi tomoshabin ham ilk taassurotni ijrochining libosidan oladi. Doimo yorqin taassurot qoldiradigan liboslar darhol tomoshabinni e’tiborini tortib keladi, lekin bu liboslar ijro davomida o’zini oqlamasa, darhol salbiy omilga aylanadi va tomoshabin unga loqayd qaraydi. Lekin ayrim liboslar maxsus bezak yoki chiroqlar og’ushida yahshi

²⁶ Tojiboyeva D. Zamonaviy estradada raqsning o’rni. Bakalavr malakaviy bitiruv ishi. T., 2011, 32-b.

taassurot qoldiradi. Oddiy dahnada esa bunday liboslar dabdabali va kulgili ko'rinib qolishi mumkin. Shuning uchun ham estrada raqqoslari sahnaga chiqishdan oldin libosni har tomonlama o'ylab, sahnani, sahna bezagini, bundan tashqari tomoshabin talab va ehtiyojlarini inobatga olgan holada tanlab kiysa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Kosert libosi sohasida bugungi kunda milliy an'analarni o'zida saqlab qolgan xalqona liboslar, estrada raqslarini ijro etish uchun o'ta zamonaviy liboslar, klassik, rasmiy liboslar va ortiqcha dabdabadan holi ravishda oddiylilikni ko'rsatib turuvchi liboslar urf bo'lmoqda.

Shu o'rinda konsertning xususiyatlari va uning nima uchun estradaning bir bo'lagi ekanligini ta'kidlab o'tsak. Konsertda bir aktyor "kichik shakldagi" tomosha, qo'shiq, raqs, she'r, monolog yoki sirk nomeri bilan tomoshabin qalbini zabt etadi. Sahnada yolg'iz turish va o'zi o'ylagan rejasini badiiy shakldagi nomer orqali minglab odamlarning qalbiga singdirish qudrati faqat estrada artistiga nasib qiladi²⁷.

Milliy estradaning rivojlanishi bilan estrada raqqosalarining faoliyati ham ko'zga ko'rina boshladi. XX asirning eng ko'zga ko'ringan raqqosalari Malika Ahmedova, Qizlarxon Do'stmuhamedova, Dilafruz Jabborova, Feruza Solihova, Rushana Sultonovalarni qayt etishimiz mumkin. Ularning har biri o'z uslubiga ega bo'lish bilan birga an'analarni yangiliklar bilan boyitib, ularni uyg'unlashtirishga harakat qilishgan.

²⁷ Umarov M. Estrada va ommaviy tomoshalar tarixi. – T., 2009. 188 b.

2.1. Ommaviy xalq bayramalarida raqsning o'рни.

Dunyoning turli joylarida inson istiqomat qilar ekan, ularning yashash tarzi, dunyoqarashi, dini, tili, madaniyati jihatidan, turlicha ma'naviyat shakllanadi. Ma'naviyat haqida gapirganda shuni aytish kerakki, millat ma'naviyati "insonning qon-qoni, suyak-suyagiga yillar davomida ona suti, oila tarbiyasi, ajdodlar o'giti, Vatan tuyg'usi, bu hayotning ba'zida achchiq, ba'zida quvonchli saboqlari bilan qatra-qatra bo'lib singib boradi. Ayniqsa, tabiatga, odamlarga yaqinlik, doimo yahshilikni o'ylab yashash, halol mehnat qilish, dunyoning tengsiz go'zalliklari va ne'matlaridan bahramand bo'lish ma'naviyatga oziq beradi, uni yanada kuchaytiradi"²⁸. Qaysiki xalqning ham moddiy ham ma'naviy madaniyati yuksak bo'lsa, o'sha xalqning ma'naviyati azal-azaldan shakllanib keladi.

"Ma'naviyat – insonning, xalqning, jamiyatning, davlatning kuch-qudratidir. U yo'q joyda hech qachon baxt-saodat bo'lmaydi. Nafaqat ko'hna tarix, balki yangi tarix ham buning ko'plab misollarini beradi"²⁹.

Darhaqiqat ma'naviyati yuksak yurtning, xalqning kelajagi mustahkam va porloq bo'ladi. Ma'naviyat insonni komillikka, yahshilikka, pok va halol yashashga undaydi. Ma'naviyatni chuqur anglagan inson o'z yurti, o'z xalqining tarixini yahshi anglay oladi.

O'zbek xalqining paydo bo'lish tarixi qanchalik uzoqqa borib taqalsa, uning milliy an'analari, urf-odatlar, marosimlari ham shunchalik teran tarixiy ildizga ega. Ular xalqning ma'naviy ehtiyojlari zahirida paydo bo'lib, shakllanib, sayqallanib o'z mazmunida shu xalqning orzu-o'ylari, istaklari, turmush-tarzi, axloq normalarini mujassam etadi. Shuning uchun ham har bir xalq, millat, elat ularni ko'z qorachig'idek avaylab-asrab, taraqqiy ettirmog'i, kelgusi avlodlarga ma'naviy qadriyat sifatida yetkazmog'i kerak. An'analari, urf-odatlar, marosim va bayramlar xalqning, millatning ma'naviyati, qadriyatlarining ajralmas qismidir.

²⁸ Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch". T., "Ma'naviyat", 2008, 28-b.

²⁹ Karimov I. A. O'zbekiston: milliy istiqloq, iqtisod, siyosat, mafkura. T., "O'zbekiston", 1996, 1-jild, 81-b.

Biz ma'naviyatni, xalqning an'anasi, urf-odatlarini, bayramlarini bejizga tilga olmadik. Har bir xalqning o'z turmush tarzi, yashash sharoiti, turli xil marosim va bayramlari va shu bayramlarida ijro etiladigan kuy-u qo'shiqlari va bir-biridan jozibador raqslari mavjud.

“Bayram” – turkcha so'zdan olingan bo'lib, to'y, marosim, xursandchilik degan ma'noni bildiradi. Bayram so'zining turli talqinlari bor. Bizningcha, falsafiy ensiklopediyada berilgan Bayram – “insonlar xursandchiligining yig'indisi”,- degan talqin eng to'g'risi deb hisoblanadi. Bayram ijtimoiy, mahalliy hayotning eng muhim qismlaridan bo'lib, shodiyona, xursandchilikni vujudga keltiradigan voqealarni nishonlaydi³⁰.

Ommaviy bayramalar ba'zi bir tashkilotchi yoki tashkilotning xoxishiga qarab o'tkazilmasdan, balki keng xalq ommasining bayramga bo'lgan ma'naviy ehtiyoji tug'ilganda o'tkazilsa, haqiqiy bayram tomoshasi yuzaga keladi.

Mustaqillik g'oyalarining keng xalq ommasiga singdirish, ulardagi yuksak fuqarolik tushunchalarini tarbiyalashda ommaviy bayramlarning tutgan o'rnini beqiyosdir. Hech qaysi teatr, hatto eng kattasi ham ommaviy bayramlar insonga ta'sir qilgandek, ko'plab xalq ommasiga ta'sir qila olmaydi. Shuning uchun ham ommaviy bayramlar rejissorining jamiyat oldidagi mas'uliyati judayam katta.

Ushbu damda insonlarning xoh shaharda bo'lsin, xoh qishloqda bo'lsin, bayramda qatnashishga, bir-birlari bilan muloqotda bo'lishga intilishlari katta ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, istiqlol nashidasini surayotgan mamlakatimizda, jamiyatimizdagi ma'naviy-siyosiy muhit barkamollashib shaxsning bo'sh vaqtini unumli hordiq chiqarishini to'g'ri tashkil qilishga katta ahamiyat berilmoqda.

Bayramlar hayotning eng yahshi tomonlari aks ettirgan “ko'zgu” dir. Bayram insonlarning estetik kechinmalariga ta'sir qilib, shaxsning ma'naviy dunyosini boyitgan vositadir. Bayram va tomoshalarning asosini milliy

³⁰ Ahmedov F. Ommaviy bayramlar rejissurasi asoslari. T., 2008, 5-b.

qadriyatlarga bo'lgan hurmat, ehtirom egallab, insonlarga badiiylik, san'at orqali estetik zavq bag'ishlashdek vazifalar ustuvor turadi. Bayram tashkilotchilari, ayniqsa, stenariychi, rejissor ishlatilayotgan materiallarning dolzarbligi, hujjatlar, faktlarning aniqligi va ularning badiiy uslublari yordamida sintezlash kabi vazifalar ulardan juda ham katta javobgarlikni talab qiladi. Bunday tadbirlar insonlarning ijtimoiy-psixologik talablariga javob berib, mayda guruhlardan ommaviylikka o'tib, shaxslarning ommaviy harakatidagi faolliklarini oshirib, bayramona dam olishdek sharoitni yaratishga turtki bo'ladi.

Stadionlarda, maydonlarda, bog'larda, ko'chalarda o'tkazilayotgan ommaviy tadbirlar nafaqat ommaviy hatti-harakatni yuzaga keltiradi, balki karnavallar, sayllar, festivallarda estetik zavq bag'ishlab, tomoshalarining tomoshaviyligini oshirib, bayramona kayfiyatni vujudga keltiradi. Darhaqiqat, bayramlar millatning, jamiyatning moddiy va madaniy sohalaridagi eng yahshi tomonlarini ko'rsatib beradi.

“Shubhasiz, eng katta boyligimiz – xalq orasida, hayotda yashab kelayotgan rango-rang raqs madaniyatidir. Aksar u zamon to'fonlarini yengib, bizgacha yetib kelgan. U hamon ikki yo'nalishda yashab kelmoqda: biri – ijtimoiy va maishiy hayotda xalq marosimlari va bayramalari tarkibida namoyon bo'lib kelayotgan chinakam xalq raqslari, ikkinchisi – malakali baletmeysterlar tomonidan yaratilgan yoki qayta ishlangan xalq raqslaridir. Bu yo'nalishlarni bir-biridan ajratish juda qiyin. Ular muttasil bir-biriga ta'sir ko'rsatib keladi. Xalq orasidagi raqs ijtimoiy hayot ta'siri va oqimida yangilanib, boyib boradi. Buni mustaqillik yillaridagi turli pog'onalarda o'tgan Navro'z va Mustaqillik bayramlarida namoyish qilingan yuzlab o'yinlar, raqslar, kompozitsiyalarda ko'rish mumkin. Qancha unitilgan raqslar tiklangan, ne-ne yangi raqslar kashf etilgan. Xalq o'z qalbida, xotirasida asrab-avaylab kelgan buloqlarning ko'zlari ochilgandek”³¹.

³¹ Qodirov M. Tovusdek tovlanar o'zbekning raqsi. Axborotnoma, T., 2001, 1-son.

Darhaqiqat, mamlakatimiz, go'zal diyorimiz mustaqillikka erishgandan so'ng u yanada gullab-yashnadi va tobora rivojlanib, taraqqiy etib bormoqda. Bunday go'zal va jannatmakon o'lkada esa, bir-biridan mehribon, mehmondo'st o'zbek xalqi yashaydi. O'zbek xalqi qadimdan o'zining betakror urf-odatlarini, an'analarini, qadriyatlarini, turli xil marosim-u bayramlariga ega bo'lib kelgan. Istiqlol ostonasiga qadam qo'ygandan so'ng esa ular yanada avj olib, takomillashib bordi. Shular orasida ayniqsa, xalqning sevimli bayramlariga aylanib ulgurgan Mustaqillik, Navro'z bayramlari ham har yili o'zgacha shukuhda, xush kayfiyatda kutib olinadi va o'tkaziladi.

Mustaqillik bayramida aytiladigan kuy-u qo'shiqlar ham, ijro etiladigan raqslarning barcha-barchasi ham Mustaqillikning naqadar buyuk ne'mat ekanini, uni ulug'vorligini yanada yuksaklarga ko'tarish nechog'lik muhim omil ekanini eslatib turadi.

O'zbekiston Mustaqillikni qo'lga kiritgach avlodlardan avlodga o'tib kelgan ko'p bayramlarni qaytadan xalqimiz hayotiga kirib kelishi uchun zamin yaraldi. Mustaqillik yillarida xalqimiz hayotida muhim o'rin egallab taraqqiy topgan bayramlarning eng nufuzlilari "Mustaqillik" va "Navro'z" umumxalq bayrami tantanalaridir. Ommaviy madaniy tadbirlarning ulkan tarbiyaviy ahamiyatga ega shunday tantanalar o'sib kelayotgan yosh avlod qalbida milliy g'urur uyg'otib, ongiga vatanparvarlik tuyg'ularini singdiradi. Insonning ommaviylik ongini shakllantirishda ham shu bayramlarni nishonlanishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma'lumki, teatrlashgan – tomosha bayramlari azaldan turli millatlar hayotidan o'rin olgan. O'zbekistonda shunday tantana va ko'tarinkilik bilan o'tkazilayotgan bayramlarga aynan "Mustaqillik" va "Navro'z" kiradi.

Katta bayram tomoshalari, turli yirik ommaviy tadbirlarning ko'payib borishi yurtimizda ommaviy bayram tomoshalari rejissorlari, shuningdek, malakali xoreograf-baletmeysterlar guruhini voyaga yetkazishga hamda raqs ansambllarini takomillashtirishga sabab bo'ldi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Ommaviy bayram tomoshalaridagi raqs san'ati, albatta, bayramni boshidan to ohirigacha o'zining betakror jozibasi bilan bezab turadi. Raqs avvalo bayramning ommaviy kayfiyatini hamda masshtabini aks etuvchi kuch sifatida sahnaga jalb etiladi. Bayramning katta tantanasini tomoshabin uchun visual ochib berishda rejissorlar raqs ansambl va jamoalarini sahnada reja va g'oyaga muvofiq joylashtirib faollashtiradi. Tomoshaning orqadagi fon harakati, raqqoslar kiygan rang-barang liboslarning uyg'unligi, quvonchga to'la yorqin milliy shodiyonasini gavdalashga qodir. Bu esa bayram kayfiyatini muhim jihatidir. Turli xildagi liboslar kiyib olgan raqqos va raqqosalarning o'yin harakatlari bu jihatlarni yanada to'ldirib, boyitadi. Raqs san'atining ifoda vositalari bo'lmish – plastik harakatlar, qo'l, oyoq va gavda harakatlari, ko'z qarashlari, mimika va jestikulyatsiya orqali obraz yaratishda namoyon bo'ladi.

Konsert, odatda, bo'lak va kichik nomerlardan tashkil topadi. Asosan ularni boshlovchi (konferanse) bog'lab turadi. Spektaklda ham konsert kabi kichik sahnalar va ko'rinishlar mavjud bo'lib, ular voqealar ketma-ketligini tashkil etadi. Biroq, spektaklda har bir voqea mantiqiy ravishda keyingi bir voqeaga ulanib ketadi va qahramonlar to'sqinliklarni yenggan holda oliy maqsadlari sari harakat qiladilar. Ammo, ko'pincha konsert – tomoshalardagi nomerlar spektakl voqealaridek, mantiqiy ravishda bir-birini to'ldirib kelmasligi yoki aksincha goho bir-biriga tamoman zid bo'lishi ham mumkin. Ustiga ustak, bir nomer ikkinchi nomerdan janr doirasida bir-biridan keskin farq qilishi ham mumkin. Ana shu damda raqs uchun murakkab bo'lgan jarayon boshlanadi.

Sahnada raqslar yordamida kompozitsiyani voqeligi aks etiladi. Jumladan, keng masshtabli maydonlarni badiiy jihatlar bilan boyitish nihoyatda mushkul. Ana shu pallada rejissorlar raqslarga murojaat qiladilar.

Tomosha nomerlarini bir-biriga ulash, ularning tempo-ritmi doirasida uyg'unlashtirib yaxlit bir spektakl holatiga keltirish bosh baletmeysterning mahoratiga bog'liq bo'ladi. O'zbekiston xalq artisti Qodir Mo'minov bu sohada samarali faoliyat ko'rsatib, katta tajriba orttirgan baletmeysterlardan biridir.

Ommaviy bayram tomoshalariga bosh baletmeyster sifatida mana bir necha yillardan beri jalb etilgan bu ijodkorning yana bir iste'dod qirrasini, aynan katta masshtabli bayram tadbirlarini muvoffaqiyatli sahnalashtirishda yaqqol ko'zga tashlandi.

Bayram tomoshalarda raqs yordamida badiiy obraz yaratish, albatta tadbir mavzusi va g'oyasiga bog'liq. G'oya – stenariy muallifi, rejissor va baletmeyster fikrlarining uyg'unligida paydo bo'ladi. Konsert g'oyasi va mavzu stenariysi ishlab chiqilayotgan paytdayoq ayon bo'lishi lozim.

Stenariy – konsertning asosi bo'lib, uni yaratishdan oldin stenariy-muallifi tomoshaning baletmeysteri va hattoki bayram ishtirokchilarining asosiy qismi bilan tanish bo'lishi lozim. Bundan tashqari u shu ishtirokchilar (konferanse yoki boshlovchilar, xonandalar, sozandalar, raqqosalar, qiziqchilar, sirk artistlari va h.z.)ning ijro uslublari, tomosha-konsertga qanday nomerlarni tayyorlaganliklari haqida ham ma'lumotga ega bo'lishi lozim. Stenarist ba'zida tayyor nomerni ham stenariy asosiga kiritishi mumkin bo'lgan chog'larida, ular qanday janrda va mavzuda ekanligi, uning doimiylik vaqti qancha degan savollarga javob topishlariga ham to'g'ri keladi. Ijrochilar bilan tanishib bo'lgan stenarist endi, ana shu konsert o'tkazilishi lozim bo'lgan sahnani, uning bor imkoniyatlari haqida xabardor bo'lishi ham lozim³².

Raqslarning ommaviy bayram tomoshalar uchun sahnalashtirish birmuncha murakkab vazifa. Vokal nomerning bezab turishi uchun unga ozmi-ko'pmi raqs elementlarini qo'llash kerak bo'ladi. Bitta bayram yoki tomosha uchun bir qancha baletmeysterlarning ijod mehnati singadi.

Xususan, tabiat bayrami bo'lmish “Navro'z”, insoniyatning yuksak tuyg'usini ulug'lovchi “Mustaqillik” shodiyonalarida ushbu san'atning taqlidiy raqs hatti-harakatlari (hayvon, qush, baliq va o'simliklar harakatini ifodalash, inson hatti-harakatini ko'rsatish), tasviriylar (ovchi, baliqchi, temirchi, hunarmand

³² “Mustaqillik” va “Navro'z” umumxalq bayram tomoshalarining stenari muallifi – Abdulla Oripov, Jumaniyoz Jabborov, Rustam Musurmon (2007 y.), Iqbol Mirzo, Rustam Hamidov, Baxtiyor Sayfullayev (2008-2012).

faoliyati jarayonlari yoki biror jangni aks etuvchi harakatlar), lirik raqslar (inson tuyg'ulari, hissiyotlari, kechinmalarini bevosita yoki timsol orqali ifodalash), estetik raqslar (kuchli hissiyotni aks etuvchi harakatlar), shuningdek, udum va marosim raqslari, hamda professional raqs turlarini keng o'rin olishini ta'kidlash lozim.

Ushbu tadbirlarni tashkillashtirishda ko'plab iste'dodli sahnalashtiruvchi – rejissorlar, baletmeysterlar va boshqa madaniyat arboblari mashg'ul. “Mustaqillik” va “Navro'z” bayram tomoshalarining badiiy rahbari va bosh rejissorlari – Rustam Hamidov, Bahodir Yo'ldoshev; ommaviy tomoshalar rejissorlaridan biri – Edvard Kolosovskiy; badiiy sahnalarning bosh rejissorlari – Nosir Otaboyev, Marat Azimov, Bahtiyor Hamidov, Shokir Ahmedov, Aleksandr Kalutskiy, Olimjon Salimov, Nabi Abdurahmonov, Isoq To'rayev, Nodira Qurbonova, Karima Zaripova, Boris Pokrovskiy, Marat Xasanov. Shuningdek, barcha tadbirlarning bosh baletmeysteri – Qodir Mo'minov; baletmeysterlar guruhi – Yulduz Ismatova, Ma'mura Ergasheva, Ibragim Yusupov, Nasiba Madrahimova, Gavhar Matyakubova, Shokir Ahmedov, Po'lat Madraimov, Muyassar Sotvoldiyeva, Nazriddin Shermatov, Dilbar Yunusova, Feruza Isayeva, Karima Uzoqova, Erkin Qahhorov va b.

Bugunda har yili nishonlanib kelinayotgan “Navro'z” umumxalq bayrami va “Mustaqillik” tantanalarida ishtirok etib kelayotgan ko'plab ashula va raqs ansambllari faoliyati teatrlashgan tomoshaning asosiy o'zagini tashkil etdi. Sahnaviy raqslarni sahnalashtirish uchun katta jamoalar va ansambllar jalb qilinadi. “O'zbek raqs” birlashmasi tarkibiga kirgan “Zarafshon”, “Lazgi”, “Tanovar”, “Aykulash” (Qoraqalpog'iston) nomli katta ansambllar “Sumalak” (Andijon), “Lola” (Buxoro), “Gulira'no” (Jizzax), “Momogul” (Qashqadaryo), “Navoyi navolari”, “Namangan gullari”, “Samarqand bahori”, “Guldasta”, “Shalola” (Surxandaryo), “Anor”, “Kamalak” (Farg'ona), “Xorazm navolari” raqs ansambllari hozirgi kunda respublikamizda o'tkazilgan barcha bayram va

tomoshalarning asosiy ijodiy kuchlaridan biri hisoblanib, bayramlarning ko'rkiga ko'rk qo'shib kelmoqdalar.

Bunday ommaviy tomosha bayramlarning sahna ustalariga aylangan bosh baletmeysterlari, yurtimizning el suygan taniqli san'atkorlari – Yullduz Ismatova (marhum) va Qodir Mo'minovning xizmati nihoyatda katta. Ular bilan bir qatorda, Ma'mura Ergasheva, Shokir Ahmedov, Ibragim Yusupov va Ziyoda Madrahimovalar, Zuhra G'oziyeva, Aliya Shalharova va boshqa ko'plab baletmeysterlardan bayram tadbirlari dasturiga tayyorlangan syujetli raqslari xoreografiya san'atida rejissuraga xos bilim va ko'nikmalarni oshirishda katta hissa bo'ldi.

Katta ochiq maydonda sahnalashtirishga mo'ljallangan raqslarda baletmeysterlardan odatda raqs matnini musiqiy matn bilan bog'liq harakterini aniq ko'rish darkor ("musiqani ko'rish effekti", matnni terib olish omili va b.). Ommaviy bayram tomoshalarida raqsning fazoviy masshtab tuzilishi ustida ishlash murakkab jarayon. Sahnada raqqoslarning fazoviy joylashuvi, ya'ni mizanstenalar, rakurslar, raqs ijro etayotganlarni o'rindan siljishi va fazoviy joylashuvi, hammasi o'zini ifodaviylik kuchiga ega. Raqsning fazoviy yechimi oddiy va murakkab, simmetrik va asimmetrik, bir - planli yoki ko'p - planli bo'lishi mumkin. Mizanstenalar va sur'atlarni ketma-ketligi o'zining rivojlov mantiqiga ega (sahna harakatini dadillashuvi yoki susayib borishi). Bu mantiq sahna harakatining o'zaro harakteriga bo'ysunadi (abstraktli yoki harakat-bayonotli).

Rejissor bilan baletmeyster raqslarning kompozitsion yechimi va ko'rinishi, raqs matni, rivojlanish mantiqi bo'yicha kamchiliklarni bartaraf qilib, fikr - mulohazalarni tinglab, bir umumiy mulohazaga kelgandan so'ng, nomerlar texnik-mahorat nuqtai nazardan "tozalanadi" (ohang va ritmlar, ijro amplitudasi, ijro aksentlar qayta ishlanadi), aktyorlik tomondan ham emotsional bo'yoqlar aniqlanadi, ijrochilar bilan muloqotlar evolutsiyasi aniq belgilanadi.

Bayram tomoshalarining ko'rki va jozibasini ochib turuvchi raqs liboslari haqida alohida to'xtab o'tish lozim.

Ma'lumki, raqqosaning libosi raqs obrazlariga aniqlik beradi. Shunga ko'ra har bir raqs o'z libosi bilan yanada mukammallik kasb etadi va yanada go'zal ko'rinish beradi. Liboslarni bayram mavzusi va g'oyasiga monandligi nihoyatda katta ahamiyatga ega.

Liboslar dastlab eskizlar tarzida havola etiladi. Buning uchun raqsning asosiy mezonlari belgilanadi va ularga asoslanib libos yaratiladi. Xususan, libosning shakl-shamoili, ifodaviyligini aks etuvchi komponentlarga (konstruktiv detallar, rang sifati, matoning ustki fakturasi, sahna chiroqlari nurlanishida matoning rang o'zgarish tabiatiga) alohida e'tibor qaratish lozim bo'ladi. Chunki ular musiqiy raqs obrazini oshirishga imkon berishi lozim (personajlar, gavda harakatlari, qo'l harakteriga mosligi va b.).

Demak, ommaviy tomoshalarining tarkibiga kirgan raqslarni maromiga yetkazib, tamoshabinlarga badiiy – estetik zavq ulashda, sahnada nafaqat yakkaxon va ommaviy chiqishdagi raqqosalarning iste'dodiga bog'liq, balki, bir katta ijodiy guruh izlanishlari (ommaviy tomoshalar rejissori, sahnalashtiruvchi rejissorlar, bosh baletmeyster va baletmeysterlar guruhi, liboslar bo'yicha rassomlar, pardozechilar va b.) samarali mehnati evaziga amalga oshiriladi.

Bayram tomoshalaridan o'rin olgan yakkaxon, guruhli, ommaviy raqsar, xoreografiya va o'zbek raqs san'atining barcha uslublari, shakl ko'rinishlari, janrlari hamda ijrochilik maktablarining eng sara an'analari davom etib, kamol topayotganligini isbotidir.

2.2. Klip san'atini yaratishda raqsning o'rni.

Yigirma birinchi asrni san'at qutqaradi,- degan ibora paydo bo'lganiga ko'p vaqt bo'lgani yo'q. Hozirgi yashab turgan asrimizga nisbatan juda ko'plab bunday iborali ta'riflar berilmoqda. Ko'pchilik esa yigirma birinchi asrni texnika asri deb atashmoqda. Har ikkala fikrni yoqlovchilarning bunday deyishlariga o'zlarida yetarlicha asoslari bor. Fan-texnika taraqqiyoti bugun yer kurrasida o'zining

kulminatsion nuqtasiga chiqish arafasida, u kundan-kunga kuchaygandan kuchaymoqda. Biroq, san'at haqida gapirilganda bir haqiqatni tan olish kerak-ki, bugungi kun san'ati ham fan-texnika taraqqiyotiga bo'ysunib uning ortidan ergashmoqda. Fan-texnikaning taraqqiyoti san'at turlarining shakllarini o'zgartirib, o'ziga xos ko'rinishdagi qiyofasini yaratmoqda. San'atga yangi iboralarni, yangi yo'nalishlarni, yangi yondashuvlarni, yangi nafasni olib kirmoqda.

1990-yillar musiqiy estradasini keng ommaga yoyishda televideniye, kino, musiqa hamda axborot sohalariga xos ifoda vositalarini o'zida mujassam qilgan, musiqa va qo'shiq matnidan kelib chiqib, tasvir bilan birikuvi natijasida **trek** (trek-inglizcha so'zdan olingan bo'lib, iz degan ma'noni anglatadi) paydo bo'lishi, uning rivojlanishi natijasida musiqa va kinoning sintezi bilan **“klip”**³³ deb atalmish yangi yo'nalishning kirib kelishi quvonarli holdir. Xususan, bugungi kunda asosan she'r mavzusidan kelib chiqqan syujetli, tasviriyl hamda **multiplikatsion**³⁴ kompyuter grafikasi asosida ishlanayotgan kliplar qo'shiq janrini targ'ib etishda kuchli vositalardan biriga aylanib ulgurdi.

Bugungi kun o'zbek estrada qo'shiqchiligini klipsiz tasavvur qilish qiyin. Hozirgi kunda klip qaysidir ma'noda qo'shiqlarimizning libosiga aylanib ulgurdi. Kundan kunga kliplarning soni ham tobora ortib bormoqda. O'z o'zidan savol tug'iladi. Aslida klip nima? U qanday bo'lishi kerak? Uning o'ziga xos xususiyatlari nimada? Klipda ko'proq nimalarga e'tibor qaratish lozim? O'zbek kliplarida raqslarimizning o'rni qanday?

“Klip bu – televizorda qor, kliplarni tomosha qilish bu qor parchalarini atrofida aylanib tomosha qilgandek go'yo, boshqacha qilib aytganda tomoshabin

³³ Klip- clip- soha atamasida “promo-video” deyiladi. Uning ma'nosida xitni targ'ib etish uchun olingan qisqa (bir qo'shiq sadolanishi doirasida) videotasvir tushuniladi.

³⁴ Multiplikatsion – lot. multiplication – ko'paytirish.

kliplarni tomosha qilishni boshlaganda o'zini to'xtata olmaydi, bu narsa yahshilikdan emas, oxiriga borib nima bo'lishiga qiziqishdan"³⁵.

Klip – inglizcha “clip” so'zidan olingan bo'lib, “kesib olmoq”, “uzib, yulib olmoq” degan ma'noni anglatadi. Klip bu mini-kino, ya'ni mazmunga ega bo'lgan kichik syujetli kinofilmdir. Klip qo'shiq asosidagi she'rni mohiyatini, mazmunini ifoda etishi lozim. Shu bilan bir qatorda u bizlarga ham madaniy hordiq, ham ma'naviy ozuqa bera olishi kerak. **Klipmeyker**³⁶lar klipni suratga olayotganda, eng avvalo, qo'shiqni matni va kuyiga alohida e'tibor qaratishlari lozim. Ular qo'shiq mavzusini mohiyatini qay darajada ochib bera olganliklariga qarab, klipning sifatini bilib olishimiz mumkin. Kliplarning har tomonlama mukammal bo'lishi, maqsadga muvofiqdir. U tomoshabin uchun ham qiziqarli, ham o'yga toldiruvchi, fikrlashga undovchi, ham ko'zni quvontiradigan bo'lishi kerak.

Ba'zan biz ayrim xonandalarni, ularning qo'shiqlariga iste'dodli, kuchli klipmeykerlar tomonidan yaratib berilgan kliplari orqaligina taniymiz. Nima uchun shunday? Aslida xonandani ovozi, dardli xonishlari orqali tanish o'rinli emasmi? Shunday bo'lgani ham to'g'rida. Chunki faqat kliplari uchungina tomosha qilinadigan xonandalar, to'g'rirog'i o'zlarini “xonandaman” deb yurganlar bugun bor, ertaga yo'q.

O'z o'zidan savol tug'iladi, klip nima sababdan o'zbek san'atiga kirib keldi? Bu savolga javob qilib bir qancha sabablarni ko'rsatish mumkin. Birinchidan, bu zamon talabi, O'zbekistonga kirib kelgan davrda boshqa rivojlangan davlatlarda, xususan, Rossiya va Yevropa estrada san'atida klip ommalashib ulgurgan. Ikkinchidan esa, mustaqillikdan so'ng o'zbek qo'shiqchilik san'atida horij davlatlarining zamonaviy musiqa va qo'shiqchiligiga hamohang tarzda “zamonaviy estrada” degan yo'nalish paydo bo'ldi. Zamonaviy estrada o'zbek “shou-biznesi”ni tashkil qildi. Shou-biznesda birinchi o'rinda estrada

³⁵ Н.Каримова. К проблеме визуальной эстетики клипа //Клип и видеоарт (стратиграфия языка). Доклады стенограмма семинара, Швейцария элчихонаси ва ТВ-марказ канали ҳамкорликда ўтказилган семинардаги мутахассисларнинг фикрлари. Т., 2006.

³⁶ Klipmeyker – clip maker- klip olishga ixtisoslashgan rejissorlar.

xonandasining imidji, xalqqa nechog'lik tanilishi, ya'ni qanchalik ko'p muxlis orttirishi turadi. Bunday natijaga erishish uchun albatta, xonanda o'zini reklama qilishi zarur, klip esa ana shunday reklama vazifasini bajara boshlagan. Uchinchidan, xonanda ijro etgan qo'shiqni voqealar orqali tomoshabinga yanada to'liq yetkazib berish.

Bundan tashqari kliplarimizda milliylik, plastika yetishmaydi, professional raqqoslarimiz kam ko'rinishadi. Har bir yaralayotgan kliplarimizda albatta, hammamiz ham professional raqqoslarimizning ajoyib raqslaridan bahramand bo'lishni xohlaymiz.

Kliplar modani ko'rsatadi, hayot uslubini targ'ibot qiladi, say-harakatlar va borliqni baholashda taqlid namunasi bo'lib ishlaydi. Shuning uchun ham musiqiy xoreografik videokliplarni insonlarga ta'siri, ularda ma'lum holat va harakatlarni shakllantirishi hozirgi kunda ayniqsa dolzarb hisoblanadi.

Musiqiy madaniyatni keskin rivojlanib borishining va san'atda yangi yo'nalish va uslublarni paydo bo'lishining bir sababi – bu tovush yozuv texnik vositalarini rivojlanishi va mukammallashishidir. Ularni kompyuterlashtirish usullari juda keng ijod doirasini ochib beradi. Shu sababdan deyarli barcha ijrochilarga hatto uy sharoitida kashfiyotlar (eksperimentlar, izlanishlar) uchun imkon berilmoqda. Internet tarmoqlari kengaytirilishi tufayli dunyoning barcha musiqachi, aranjirovkachi, klipmeykerlar orasida aloqalar kuchaydi. Hatto chet hududlardagi ijodkorlarga jahon videokliplarni yaratuvchilarga kabi videokliplar yaratishga imkon va shart-sharoitlar beriladi. Shu qatorda bizning davlatimizda ham musiqiy industriyani keng rivojlanishi kuzatilmoqda.

Musiqiy klip boshida kompozitor tarafdin yaratilgan musiqiy kompozitsiya ko'rinishiga ega bo'lib, aranjirovkachi va ijrochi tarafdin yozib olingandan so'ng unga videoklip ishlanadi. Aynan videoklipni ancha ifodali, tushunarli, yetib boruvchi qilishi kerak. ya'ni, videoklip qiziqarli kommersiyali mahsulotga aylanadi.

Bugunga kelib yuqori darajada videoklipni yaratish uchun katta moddiy harajatlar talab qilinadi va bu qimmatga tushgan videoklipni harajatlarini chiqarish uchun turli yo'llar bilan reklamalar o'tkaziladi. Bundan kelib chiqqan holda bugungi ijtimoiy tizim videoklip va musiqani sotuvchi kommersiya mahsulotiga aylantirib musiqiy madaniyatga o'z qonunlarini aytib turadi.

Yangi zamonaviy ekran texnologiyalari va ijodiy g'oyalar tez rivojlanib, ko'pincha kichik hajmga ega bo'lgan ekran shakllarda sinab ko'riladi. Shular qatorida videokliplar turib, ulardagi raqslar ko'pincha videoklipni baholashda va uni tanilishida katta ahamiyatga ega bo'ladi. Zamonaviy jahon videokliplarida ayniqsa, yoshlar madaniyati yetakchi o'rinni egallab kelmoqda va ular insonlarga va aynan yosh avlod o'sishida afsuski ularni hayotiy did, qadriyatlar va dunyoqarashlar shakllanishida salbiy ta'sir ko'rsatib kelmoqda.

Zamonaviy estrada musiqasi bugungi kunda yanada pul topish vositasiga aylanib bormoqda va shu bilan birga to'g'ri did, ma'naviy – madaniy tarbiya unsurini yo'qotib ketmoqda.

Zamonaviy kliplarni tuzilishi o'xshashdir. Ulardagi ma'lum tempo-ritm rejalar almashinish, qo'shiq dramaturgiyasi, operator ishi va qisqa videolavhalar almashinishi (klip montaji) dan tashkil topadi.

Zamonaviy televideniye voqealarni tezligini va o'zgaruvchanligini namoyish etadi va 2-3 daqiqada ma'lum axborot syujetini ifodalab berishga harakat qiladi va shunda rejalar 2-3 soniyada almashinib turiladi. Shunday qilib qisqa vaqt ichida ko'p axborot berish kliplarda asosiy vazifalardan biridir. Ko'p axborotlarni shunday tez tarzda idrok etish zamondoshlarimiz uchun odatiy holat bo'lib qolgan. Bir narsadan ikkinchi narsaga tez o'tib ketish, albatta, aqliy va hissiy toliqishga olib keladi. Inson albatta bu ritmda yashashi keyinchalik sog'lik, psixologik asoratlarda, depressiyalarda aks etishi mumkin. Shuning uchun ham bunday tezkor shakl an'anviy shakllar bilan almashilib turilishi lozim.

Zamonaviy san'atning shakllari ko'r-ko'ronalik bilan ajralib turadi. Kontrastlar almashinishi va tezkorlik tomoshabinning butun e'tiborini o'ziga jalb

qiladi. Ba'zi kliplar konsert chiqishni montaji bo'libgina qolib, syujetli rivoj va rang-barang videolavhalarga ega bo'lmaydi.

Azaldan qo'shiqlar raqs ishtirokida ijro etilishi o'zbek estrada san'atida tabiiy holga aylangan. Raqs qo'shiq mazmunini namoyish etadi, muhim joylarga urg'u qo'yadi, musiqaning hissiyotli ta'sirini yanada oshiradi. Bunday kliplarda video mazmun faqat xoreografik kompozitsiyasi tomonidan ochilib beriladi.

Yevropa kliplarida esa raqs katta o'rinni egallamaydi., ularda syujetli rivoj yetakchi bo'ladi. Ko'p hollarda esa qo'shiqning mazmuni va klipdagi berilgan syujetlarni mazmuni bir-biriga o'xshamas bo'lib ham keladi.

Kliplarni syujetli, konsertli va musiqiy-xoreografik turlariga ajratish mumkin³⁷.

O'zbek musiqiy videokliplarini tahlil qilib aytish mumkinki, ularni tuzilishida xoreografiyani o'rni turlicha.

Agar videoklipni axborot beruvchi g'oyaviy yo'nalish desak, undagi raqslar to'ldiruvchi yoki qo'shimcha vazifani bajaradi. Agarda qo'shiq lirik bo'lsa, raqs o'z o'rnida mustaqil parallel g'oyaviy yo'lni (chiziqni) olib borishi mumkin.

Ko'pincha videokliplarda taniqli o'zbek badiiy filmlaridan syujetli lavhalarni ketma-ketligi (saun-trek) beriladi. Ba'zida esa kliplarda mashxur aktyorlar ham qatnashadi. Bunday kliplarda raqslar deyarli uchramaydi, ya'ni ularda raqsga muhtojlik bo'lmaydi. Shuni ta'kidlash kerakki, videokliplarda ishtirok etuvchi aktyorlarni madaniyati va mahorati yil sayin o'sib bormoqda.

Ilk o'zbek videokliplarida raqqoslarni tanlashda havaskorlik va mutaxassislik sezilib turar edi. Hozirda esa raqs nomerlarini yozishda tajribalilik va yuqori professionallik yaqqol namoyon bo'ladi. Masalan, Anvar Sanayevning "Kel bag'ringga bos" qo'shig'iga olingan klipda, go'zal raqqosa qizlarimiz o'zlarining betakror raqslarini ijro etganlar. Bu raqsda milliylik ruhi ufurib turadi. Qizlarimizning o'zlariga yarashgan o'zbekona milliy liboslari, sochlarining qirq

³⁷ Мигнарев Т. Значение танца в музыкальных видеоклипах БМИ Т., 2011.

kokil qilib o'rilganligi, har bir nafis harakatlaridagi noz-karashmalar va qizlarning ko'rki bo'lgan ibo-hayo yaqqol ko'zga tashlanib turadi.

Sardor Mamadaliyev o'zining videoklipi uchun Nuriddin Haydarovning tango uslubida ijro etilgan qo'shiqqa o'xshash "Bermasman" qo'shig'i videoklipi uchun hatto raqsga tushish uchun emas, faqat kamera ro'parasida turib o'zini ko'rsatish uchun bo'lsa ham taniqli raqqosani taklif qiladi. Bu raqqosa albatta o'z o'rnida juda chiroyli mohirona imo-ishoralar qiladi, o'zini bemalol tutishi bilan o'ziga jalb qiladi.

Shuni aytib o'tish kerakki, ba'zi kliplar eski klassik filmlaridan olingan lavhalarni o'z ichida saqlaydi (masalan, Dilso'zning "Begim" klipida "O'tgan kunlar" badiiy filmidan parchalar ko'rsatilgan).

Shu o'rinda Yodgor Mirzajonov o'zining "Qaylarga boray" qo'shig'ining videoklipi 70-yillardagi stilyagalar uslubida tuzadi. Solo ayol opera tarzda ijro etuvchi ovoz bilan kuylaydi. Biroz o'zbekona qo'shiq uchun bu kuylash uslubi notabiiy bo'lib tuyuladi. Klipda aytilgan davrga xos raqslardan tashqari boshqa syujet ham rivojlanadi – yosh bolani yupatish maqsadida bir kishi boshqa bir kishini ko'chada sotib olgan pirojkalarini o'g'irlab yig'layotgan bolaga beradi.

Hozirgi zamonaviy hayotni targ'ib qilayotgan videokliplardan aynan yuqorida aytilgan o'tmish hayot syujetiga bag'ishlangan videokliplar o'zining mazmundorligi, ibo, soddalik, qiziqarli ishlanishi bilan o'ziga jalb qiladi. Bunga o'xshash kliplar sanoqlidir. Zamonaviy xoreograflar esa ko'pincha mazmun, g'oyaviylik o'rniga klipni to'ldirish uchun o'ziga jalb etuvchi ahamiyatni birinchi o'ringa qo'yadi.

Zamonaviy raqs ba'zi kliplarda qo'shiq g'oyasiga ham uslubiga ham mos kelmagan holda yosh avlodning badiiy didini shakllanishida noto'g'ri, salbiy ta'sir o'tkazadi. Masalan, G'ayrat Usmonovning "Gilos" qo'shig'ida juda go'zal ovoz, sifatli aranjirovka bilan xorazm qo'shig'i uslubida ijro etilgan videoklipda o'z o'zidan tomoshabin xorazm raqsini kutadi, ammo afsuski befoyda.

Bir necha hollarda esa zamonaviy chet el raqslarining unsurlari asl o'zbek milliy uslubni siqib chiqaradi. Misol tariqasida O'lmas Olloberganovning "Ketma" o'zbekona qo'shig'iga olingan videoklipda amerikalik kobboy uslubi targ'ib qilingan. Yana bir misol – Umid Shahobov "Yonamaney" qo'shig'i xorazmcha uslubda tuzilgan bo'lsa-da, undagi raqslar kojali kostyum va shlyapalarda zamonaviy xip-xop raqsi bilan to'ldirilgan.

Tabiiy holki, ko'p estrada xonandalari raqqos emas, ammo sahnada qo'shiq aytayotganda ular tik turmasdan, albatta raqsga tushayotganday harakatlanadilar, ya'ni ko'p qo'shiqlar, ayniqsa, ritmik qo'shiqlar raqsga undaydi va raqs unsurlari xonandalarda kuzatiladi.

Yana aytadigan bo'lsak, kliplarda xonandalarimizning o'zlari ham raqsga tushayotganliklarining guvohi bo'lyapmiz. Rayxon, Ziyoda, Manzura, Ruhshona kabi qator xonandalarimiz shular jumlasidandir. Ham qo'shiq aytishni, ham raqsga tushishni eplay oladigan san'atkorlarimiz kam. Shuning uchun ham bu kabi ijodkorlarning san'atlarini maqtovg'a loyiq deyish mumkin.

Ko'rib chiqilgan ohirgi yilda mashhur bo'lgan o'zbek videokliplarining bir nechtasida raqs fragmentli, ya'ni bir necha lavhalar orqali ko'rsatiladi. Ularda raqs bir necha lahzani to'ldiradi va uning ahamiyati past. Yodgor Mirzajonovning "Dona-dona", Samandar Hamroqulovning "Man ovora", Feruza Egamovanning "Ishq fasli", Asilbek Amanullohning "Manisha" kabi qo'shiqlariga olingan videokliplar shular jumlasidandir.

Ba'zi videokliplarda esa boshidan raqsga asosiy rol beriladi – sahna, raqqosalar (yoki raqqoslar) guruhi raqs kostyumlarida, raqssimon jo'shqin qo'shiq yangraydi. Masalan, "Farhod va Shirin" guruhining "Shaqi-shaqi" xalq qo'shig'ida raqslar qo'shiq kuyini tez sur'atini ko'rsatib beradi. Ammo qo'shiqni ma'nosidan kelib chiqmagan holda qo'shiqchi qiz va yigit klipni boshidan ohirigacha gap bilan urishganday imo - ishora qiladilar. Yana bir misol, mashhur xonanda yulduz Usmonovanning "Gulisan" qo'shig'iga xoreografiya Oliy maktabidan taklif qilingan

o'quvchi qizlar balet oq kastyumlarida raqsga tushadilar. Bu klipda ham qo'shiq va raqs uslublarini bir biriga mos kelmaganligini ko'rishimiz mumkin.

Bazi videokliplarda raqs syujetidan tashqari ma'lum bir boshqa voqeaviy syujet ham beriladi (ba'zida u qo'shiqning she'riy matniga mos kelmaydi). Bu ikki syujetli chiziq almashinib beriladi va ular paralell tarzda rivojlanadi. Masalan, Aziz Rametovning "Qaytaman" qo'shig'iga olingan videoklip buning yaqqol dalilidir.

Bazi videokliplarda esa raqs hikoyaviy syujetga ulanib ketadi. Misol uchun, "ELDiDo" guruhining "O'yna go'zal" qo'shig'ida ko'priksiz moshinalar to'xtab qoladi. Yuk mashinasini yuki tushib ketganligi sababli qolgan mashinalarga yo'l bermay "tiqilish" hosil bo'ladi. Syujet rivojlanishida odamlar o'z mashinalaridan chiqib turli uslubda raqslarga tushadilar. Shu qatorda yana, Oybek va Nigoraning "Sovchilar" videoklipi, Jasurbek Mavlonovning "Rizvongul" qo'shig'iga olingan videoklip misol bo'la oladi.

Videokliplarni tahlil qilib, xulosa chiqarib aytish mumkin-ki, ulardan namunaviy, ko'p tomoshabinni didiga mos keluvchi biron bir videoklipni ajratib chiqishga loyiq topmadik.

O'ylaymizki, kelajakda videoklip janri o'z rivojini topadi va mukammallashadi hamda uslub bo'yicha rang-barang mazmunga ega, xoreografik, musiqiy va mazmunan (she'riy va video)tarafda sifatli videokliplar ishlab chiqiladi. Ularning hammasi albatta o'zbekona uslubda tuzilmasa ham, ulardagi qo'shiq, raqs va videosyujet orasida bog'liqliklar, bir uslublik ravon birlashishi kuzatilinishi lozimdir. Videokliplarni tomoshabinga tasir natijasi ham muhimdir. Bu videokliplar yana ijobiy kayfiyat, estetik did rivojlanishi va yangi axborotli mazmunni yetkazib bera olsa, ularni bahosi yanada oshib boradi.

Xulosa

Bugungi kunda estrada qo'shiqchiligini musiqa san'atining eng rivojlanib borayotgan turlaridan biri deb ayta olamiz. San'at olamini yuksaklarga ko'tarishda esa yetuk san'atkorlarning hissasi kattadir. Ana shunday san'at gulshanida bir chaman bo'lib ijod etayotgan, o'zbek zamonaviy qo'shiqlarini dunyoga tanitayotgan san'atkorlarimiz hozirgi kunda juda ko'p. Ular qatorida Ozodbek Nazarbekov, Gulsanam Mamazoitova, Hosila Rahimova, Alisher Fayz, Anvar Sanayev, Mavluda Asalxo'jayeva, Rayhon, Shahzoda, Lola, Ziyoda, Nilufar Usmonova, Ruhshona, Sardor Rahimxon singari betakror xonandalarimiz, uyushgan xonandalar guruhlaridan "Xo'ja", "Shahzod", "Shod", "Setora", "Bolalar" va boshqalarni sanab o'tishimiz mumkin.

Shuni ta'kidlash lozimki, bugungi kunda ijodkorlarimizdan tinimsiz izlanish, o'z ustida ishlash va kuchli mehnat talab qilinmoqda. Chunki barchaning ko'nglini birdek topish, barchaning qalbidan birdek joy olish ham hammaning qo'lidan kelavermaydi.

Estrada san'atiga yashin tezligida kirib kelgan "shou-biznes" atamasi tinglashga yaroqsiz qo'shiqlar sonining ortib borishi bilan birgalikda, estrada xonandalarining sanab adog'iga yeta olmaydigan darajada ko'payib ketganligini isbotlamoqda. Xonandalar safi kengaysa-ku yahshi, lekin sifatga kelganda talabga javob bermaydigan "yulduzchalar"ga atigi bir ikki qo'shiqlari uchun, hali uni omma yahshi tanimasdan turib, ularni darhol mukofotlab, "yulduz" darajasida e'tirof etilmoqda.

Shuningdek, estrada, ommaviy tomoshalar va televideniye rejissorlari xonandalarning sahnaga yarim yalang'och holda chiqib, qo'shiq ijro etayotganlarida shunga alohida e'tibor berishlari lozimki, biz o'zbek xalqi ekanmiz, birinchi galda ana shu millatimiz ruhida qo'shiqlar yaratilishi va taqdim etilishi lozim deb o'ylayman. Bunday qo'shiqlarni esa Yevropa ruhida emas, o'zimizning milliy liboslarimizni kiygan holda kuylash va milliy raqslar

uyg'unligida ijro etish maqsadga muvofiqdir. Bu bilan xonanda nafaqat aytayotgan qo'shig'iga nisbatan, balkim o'ziga bo'lgan hurmatni ham oshirgan bo'ladi.

Qadim qadimdan haqiqiy san'at namunalarini tinglab ulg'aygan, qon-qoniga singib ketgan o'zbek xalqimiz bugungi kun san'atini, ya'ni zamonaviylikni yahshi qabul qila olmay, unga ko'nikolmay sarson bo'lmoqda. Hatto ushbu mavzu yuzasidan ataylab tadqiqot o'tkazib ko'rganimizda tegishli savollarga olgan javoblarimiz shu bo'ldiki, jamiyatimizdagi deyarli ko'pchilik bunday tarzda yaralayotgan qo'shiqlarga nisbatan o'ta jiddiy va e'tirozli munosabatlardir. Ular hamon o'sha ilgarigi qo'shiq namunalarini qumsaydilar va maroq bilan ularni tinglaydilar. Xonandalar esa atayin Yevropa madaniyatini ommaviy oqimlarigacha yahshigina o'zlashtirgan holda o'zbek san'atimizni oyoqosti qilish darajasigacha borar ekanlar, demakki ular ongida haqiqiy milliy qadriyatlarimizga bo'lgan hurmat, o'zbek san'atining o'z sofliги holatida rivojlantirish, ustoz san'atkorlarimizning ijod yo'llarini davom ettirish kabi tushunchalar yetarli darajada emas deb o'ylaymiz. Shunisi hayratlanarliki, mana shu qo'shiqlari bilan tanqid ostiga olinayotgan xonandalarning yaratyotgan aksariyat qo'shiqlari o'zining ommaviyaligi bilan hali hamon qalbimizdan joy olib keladi. Biroq, ularning ko'chirmachilik bilan yaratgan qo'shiqlari albatta, pop ("pop"-ingliz tilidan tarjima qilinganda "ommabop", "barchaga teng" degan ma'noni anglatadi) darajasiga erisha olmaydida. Shuning uchun ham xonandalarimizning bunday Yevropa san'atiga bo'lgan taqlidni, ko'chirmachilikni va bachkanalikdan iborat bo'lgan qo'shiqlarni tinglab, ularni kuzatganimizda beihitior san'atning qadri tushib ketganligini his etamiz.

Zero, shunday ekan, bugungi kun yosh iste'dodli xonandalarimiz qo'shiqlarida o'zimizning milliyligimizdan kelib chiqqan holda, ma'naviyatni chuqur anglagan holda qo'shiq kuylasalar o'ylaymizki, bizning san'atimiz ham dunyo miqyosida o'z o'rnini va o'z milliyligini saqlab qolgan holda dovrug' qozonadi. Milliylik ham zamonaviy bo'lishi mumkin, lekin qachonki, zamonaviy san'at asarida milliylik ruhi sezilib tursa. Shuning uchun ham bugungi kun

san'atkorlari ulug' ustoz san'atkorlar faoliyatlaridan o'rnak olib, ularni ijodlaridan namuna olgan holda o'z qo'shiqlarini yaratsalar, ham ularning malakasi oshishiga turtki bo'ladi va milliylik ham saqlanib qoladi hamda o'zbek qo'shiqchilik san'atimiz ham qancha vaqtlar o'tsa ham o'z qadr qimmatini yo'qotmaydi.

“Milliy estrada san'ati”ni rivojlantirish maqsadida “O'zbeknavo” birlashmasi tashkil etildi. Ular tomonidan yaratilgan san'at namunalari Mustaqillik, Navro'z, “O'zbekiston – Vatanim manim”, Nihol, Sharq taronalari, “Tarona” va shu kabi o'nlab xalqaro va Respublika ko'rik-tanlovlarida, forumlarda va turli tantana-yu bayramlarda ijro etila boshladi va xalq tomonidan sevilib tinglanmoqda.

Umuman olganda raqs va musiqa har doim hamohang chambarchaslikda rivojlangan. Musiqada yuzaga kelgan har qanday uslub raqsga ham ta'sir etmay qolmagan. Estradaning yuzaga kelishi raqsning turlarini ham boyishiga va o'ziga xosliklarini ajralib chiqishiga sabab bo'ldi.

Bugungi estrada qadimgi qiziqchi va masxarabozlar, qo'g'irchoqbozlar, dorbozlar, xalq sayllaridagi musobaqalar, hayratlanarli chiqishlarida, raqslarda vujudga kelib, asrlar osha alohida janrlar sifatida sayqallandi hamda estrada nomerlarida o'z aksini topdi. Estrada musiqa va qo'shiq, raqs va kino, sirk kabi ko'pgina san'atlarni qamrab oladi.

Bugungi kunda estrada san'atiga nisbatan ortib borayotgan talablar ijodkorlarga murakkab vazifalarni yuklamoqda. Hozirda estrada artistlari zamonaviy estrada tilini boyitadigan hamda uning tomoshabinga g'oyaviy-emotsional ta'sirini kuchaytiruvchi yangi ifodaviy vositalarni izlab topishga katta e'tibor bermoqda.

Estradaning xususiyati shundaki, uning asosini nomer tashkil etadi. Ushbu nomerlar badiiy xususiyati o'zining tezkorligi va tomoshabinga ta'sir doirasining kengligi bilan ajralib turuvchi san'at hisoblanadi. Shuningdek, estrada san'ati sintetik san'at hisoblanadi. Sababi u o'zida turli san'at turlarini birlashtiradi. Shuning uchun ham, bugungi kunda shuni ta'kidlash mumkinki, estrada konsertida

biz qo'shiqchi aktyor, hikoyachi aktyor, raqqos aktyor, sirk aktyorlari bilan to'qnash kalamiz.

Har qanday musiqa yoki qo'shiq bo'lmasin uning bezatuvchisi va to'ldiruvchisi raqs hisoblanadi. Har bir davlatning, har bir xalqning o'z milliy raqslari bo'ladi va bu raqslarda albatta millatning turmushi, hayoti va harakteri aks etadi. Shunday ekan, o'zbek milliy estrada raqsi ham boshqa davlatlar raqslaridan ajralib turadi. Estrada raqsining milliy va klassik raqslardan asosiy farqi shundaki, u o'zining tezkorligi, g'oyaviyligi va erkinligida baholanadi.

Zamonaviy estrada san'atning turli yo'nalish va janrlarini birlashtirmoqda. Bugungi kunda san'atkorlarga berilgan erkinliklar tufayli, endilikda o'zbek sahnasida ularga ko'plab konsert dasturlari berishga keng imkoniyatlar yaratilgan.

Qaysi bir konsertni olmaylik, ularni raqsiz tasavvur etish qiyin. Sababi konsertni yutug'i, uni qay darajada chiroyli chiqishi, tomoshabinni konsert dasturidan to'laqonli zavq olib, xushkayfiyat bilan kuzatishida raqsning o'rnini beqiyosdir. Konsertlarimizdagi raqslarda kichik miniatyura shaklga keltirilgan musiqali-xoreografik tomoshaviylik, milliy raqs elementlari va boshqalarni kuzatishimiz mumkin. Har bir raqs musiqa ohangi va qo'shiq mazmuniga moslashtirilishi bilan birga, bir voqelikni rivojlantirish, uning dramaturgiyasi, rivoji va avji mavjud ekanligi bilan ajralib turadi. Lekin shuni ham aytib o'tish joizki, estrada raqslarida syujet, mazmun - mohiyat bo'lishi majburiy emas, ular shunchaki oddiy raqslardan iborat bo'lishi ham mumkin. Konsertlarda turli yosh va tabaqa vakillari bo'lganligi sababli ham, u tezkor va hammabop hisoblanadi va shuning uchun ham raqs auditoriyaga moslashtiriladi.

Raqs bu san'at, har bir san'at sohasi esa hayotimizni badiiy ifoda etishi kerak. Raqs san'ati ijod ruhiyati, his-tuyg'ulari, fikrini so'zsiz, faqat harakterlar va yuz ifodasi bilan xalqqa yetkazishga asoslangan san'at turidir.

Estrada raqslari ham holatlar va usullardan kelib chiqib quriladi. Uning foydali tomoni shundaki, biz boshqa xalqlar raqslari bilan tanishishimiz mumkin. Lekin ba'zi holatlar bizning ya'ni o'zbek mentalitetiga to'g'ri kelmaydi. Raqqosalarning harakatlarida yasamalik mavjud. Mumtoz raqsdagi kabi estradada ham kuyning mazmuni, tinglovchiga ta'sirini yahshi anglab yetgan raqqosa bunday holatlarga yo'l qo'ymaydi. Zero, o'zbek raqsi o'zida go'zallik, nafosat va hayoni mujassam etgan. Raqs orqali yosh avlodni tarbiyasiga salbiy ta'sir etish holatlari oldini olish raqs ustalari va san'atshunoslarning vazifasi deb o'ylaymiz. Ushbu san'atni to'g'ri talqin etilsa, uning targ'iboti kuchaytirilsa, u o'zining ravon yo'liga tushib oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov I. A.. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. T., "O'zbekiston", 1996, 1-jild.
2. Karimov I. A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: havfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T., "O'zbekiston", 1997.
3. Karimov I. A. Ma'naviyat yuksalish yo'lida. T., "O'zbekiston" 1998.
4. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T., "Ma'naviyat", 2008.

Kitoblar:

1. Abdurahimov B, Rasultoyev J, Norbo'tayev Y. O'zbek estrada qo'shiqchiligi: taqlid va talqin. T., 2006.
2. Ahmedov F. Ommaviy bayramlar rejissurasi asoslari. T., "Aloqachi" 2008, 424 b.
3. Амануллаева Д, Аманова Н. История джаза и эстрадной музыкию Издательство журнала "Санъат" 2010 г. T.,
4. Milliy istiqlo g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. T., "O'zbekiston", 2000.
5. Mirpo'latov H.T. Ommaviy bayramlar rejissurasi. T., 2008.
6. Murodova Z. O'zbekiston san'ati makon va zamon talqinida: O'zbekiston yosh san'atshunoslarining maqolalar to'plamlari / O'ZFA; - T.: "San'at", 2011. 172 b.
7. Н.Каримова. К проблеме визуальной эстетики клипа //Клип и видеоарт (стратиграфия языка). Доклады стенограмма семинара, Швейцария элчихонаси ва ТВ-марказ канали ҳамкорликда ўтказилган семинардаги мутахассисларнинг фикрлари. T., 2006.

8. Qoraboyev U. Madaniy tadbirlar. T., 2003.
9. Sayfullayev B, Mamatqosimov J. Aktyorlik mahorati. – T.: “Fan va texnologiya” 2012, 388 b.
10. Umarov M. Estrada va ommaviy tomoshalar tarixi. T., “Yangi asr avlodi”. 2009.
11. Вахидов С. Эстрадная песня. Сборник. Узбекская музыка на современном этапе. Т., 1977, с.125
12. Xonandalik san’ati. Jahon va o’zbek milliy an’analari // O’zbekiston badiiy akademiyasi San’atshunoslik ilmiy-tadqiqot instituti. “San’at” , T., 2009.
13. O’zbekiston san’ati: Globallashuv va milliy o’ziga xoslik yosh olimlarning ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. “Yangi asr avlodi”, 2004.
14. O’zbekiston san’ati (1991-2001-yillar) // Tahrir hay’ati: H. Karamatov, N. Jo’rayev, T. Qo’ziyev va boshq.: Ilmiy muharrir: A. Hakimov; Suratchilar: F. Qurbonboyev, K. Minacheyko, R. Islomov va boshq.: /. – T.: “Sharq”, 2001. 240 b. – (O’zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 10 yilligiga bag’ishlanadi).
15. Шерметьевская Н.В. Танец на эстраде. М., 1985., 416 с.

Avtoreferat va malakaviy bitiruv ishlari:

1. Jumanazarov B. O’zbekiston ommaviy bayram tomoshalarida raqsning o’rni. T., 2010.
2. Jo’raqulova L. Klip. Uning bugungi kundagi ko’rinishi va o’zbek san’atidagi o’rni. T., 2010.
3. Мигнарев Т. Значение танца в музыкальных видеоклипах. 2011.
4. Mullajonov D. M. 1990-yillar o’zbek musiqiy estradasida ohang muammosi. NDA, T., 2004.
5. Tojiboyeva Dildora. Zamonaviy estradada raqsning o’rni. T., 2011.

Maqolalar:

1. “Ko’ngil ko’chalari” gazetasi. 49 (443)-son, 2010, 09-15 dekabr.
2. Qodirov M. Tovusdek tovlanar o’zbekning raqsi. Axborotnoma, 2001, 1-son.
3. “San’at” jurnali. T., 1991, 8-son.
4. “San’at” jurnali. T., 2004, 2-son.
5. “O’zbekiston adabiyoti va san’ati “ gazetasi, N 48, 2011-yil, 25-noyabr.

Elektron ta’lim resurslari:

1. San’at va madaniyatga oid milliy va horijiy internet saytlari.
2. [www. Ziyo.net](http://www.Ziyo.net)

Ilova